

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

**5110900- Pedagogika-Psixologiya yo`nalishi  
4-bosqich 409 – guruh talabasi**

**Aliyev Muhamadjon A`zamjon o`g’lining**

**bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “Muhammad Avfiyning Lami ul hikoyat” asarini  
tarbiyaviy axamiyatini o’rganish.**

**Namangan - 2019**

## MUNDARIJA

**Kirish.....**

**I.BOB. Allomalarimiz o'gitlarining tarbiyaviy tomonlari haqida  
nazariy asoslari.....**

- 1.1. Allomalarimizni ma'naviy merosida ta'lim - tarbiyani yoritlishi .....
- 1.2. Muxammad Avfiyning xayoti va ijodi .....

**XULOSA .....**

**II.BOB. Muhammad Avfiyning hikoyatlarining o'quvchilarga  
o'rnatish yo'llari.....**

- 2.1. Muhammad Avfiyning hikoyatlaridan namunalar o'qib izohlash .....
- 2.2. Muhammad Avfiyning hikoyatlarini o'quvchilarga tarbiyaviy tomonlarini umumlashtirish orqali xulosa chiqarishga o'rnatish.....

**XULOSA .....**

**Tajriba-sinov ishlari.....**

**Xulosa va tavsiyalar.....**

**Foydalanilgan adabiyotlar.....**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** O’zbekistonimizning kundan-kun gullab yashnab borayotganligi natijasida pedagogik tadqiqotlarning ham ko’lami kengaytirilib borishiga, milliy pedagogik madaniyat me’rosimiz chuqur o’rganilishiga, shaxsga ta’lim berish va uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari yutuqlaridan milliy xususiyatlarimizga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga kelmoqda.

Mutafakkirlarimizning asarlarida ko’plab ilg’or pedagogik fikrlar ifodalangan bo’lib, ular xalq pedagogikasini asosiy manbalaridan biri, yoshlar tarbiyasida muhim vositadir.

Go’zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, ilimli bo’lmoq, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish, ustozni qadirlash, Vatanni sevish, o’zligini anglash, fidoiylik, mehnatsevarlik, do’stlik, mardlik kabi hislatlar shakllanishining yo’l va uslublarini ko’rsatib bergenlar.

Xususan Xorazmiyning “Aljabr”, Forobiyning “Baxt saodatga erishuvi haqida”, “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u biling”, Ahmad Yugnakiyning “Rostgo’ylar ne’matlari”, Xoji Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Alisher Navoiyning “Xamsa” asarlarida tarbiya va ta’limga oid qimmatli fikrlar ilgari surilgan.

Shuningdek Munis Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Mahmud Koshg’ariy, Kaykovus, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug’bek, Sadreddin Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqalarni asarlarida ham ta’lim-tarbiya masalalariga keng o’rin ajratilgan.

Milliy ta’lim-tarbiya ishiga xalq pedagogikasini joriy etish zamonaviy maktab maqsad va vazifalaridan kelib chiqib uni mumkin qadar to’laroq amalga oshirish juda muhimdir.<sup>1</sup>

Komil inson tushunchasi o`rta asrlarda ishlab chiqilgan bo`lib, musulmon Sharqida, asosan, islomiy nuqtayi nazardan ta’riflab kelingan. Aslida «komil

---

<sup>1</sup> Mirziyev Sh.M.Erkin va faravon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.:”O’zbekiston”2016-56 bet.

inson» tushunchasining dunyoviy mazmuni borligini ham e'tibordan soqit qilish mumkin emas. Uning falsafiy ma'nosи umummilliylahamiyatga ega va umuminsoniy qadriyat sifatida asrlar davomida sayqal topib rivojlanib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'naviy omillardan foydalanish vazifasi birinchi o`ringa chiqadi, savdo, tijorat, tadbirkorlikda halollik, mehr, insof, adolat suvday kerak. Qur'oni Karimda «o'lchov va tarozini adolat bilan tortingiz» (6 sura, 152 oyat), deyiladi. Ismoil Buxoriy hadislarida molu-dunyosi ko`p odam emas, balki nafsi to`q odam badavlatdir, savdoda hiyla, aldamchilik qilmoq makruhdir, deb ta'kidlanadi.

Ko`rinib turibdiki, ma'naviyati past odam tubanlik sari ketadi.

Komillikning har bir davrga xos mezonlari bo`lganligini ham alohida ta'kidlash kerak. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan sahiy, tanbalga nisbatan serg`ayrat, qo`rkoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o`ziga xos o'lchov vazifasini ham o`tagan.

Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etilmoqda, uning bag`rida shakllanishi lozim bo`lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo`ladi. Qanday yurtdoshimizni komil deb ataymiz? Eng avvalo, ota-bobolarimizning ibratli hayot yo`li biz uchun namunadir. Binobarin, komillik g`oyasi biz uchun yot narsa emas. Aytish mumkinki, O`zbekiston insoniy komillikning chuqur an'analariga ega bo`lgan o'lka. Tadqiqotchilarining qayd etishlaricha, «bu an'ana turli avlodlar o`rtasida ruhiy yaqinlikni mustahkamlaydi, yoshlar qalbida vorislik tuyg`usini uyg`otadi. Demak, komillik — eng avvalo, insoniylik sharti va buyuk ajdodlarimizga vorislik taqozosi».<sup>2</sup>

Komillikning bosh mezoni insoniylik hisoblanadi. Insonning eng noyob fazilatlaridan biri uning komillikka intilishidir. Mehnat, aql, idrok, odob-axloq, odamlarga yaxshilik qilish — insonning oddiy fazilati.<sup>3</sup>

Har bir xalqning o`z yetuk allomalari, komil inson unvoniga musharraf bo`lgan ajdodlari bor. Ularning mehnati, merosi avlodlar ko`ksini g`urur bilan

---

<sup>2</sup> Mirziyoev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" 2016-488 bet.

<sup>3</sup> Munavvarov A. «Pedagogika». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 1996 y.

to`ldiradi. Xorazmiy, Forobiy, Farg`oniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Marg`inoniy, Beruniy, Ulug`bek, Navoiy, Muqimiy va boshqalar inson qadr-qiyamatini hamma narsadan ustun qo`yishga harakat qilganlar.

Forobiy insonning yaratuvchanlik qobiliyatiga yuksak baho beradi. U inson biologik mavjudot emas, balki aql-zakovat sohibi ekanligini, o`z mehnati bilan ijtimoiy mohiyat kasb etishini uqtiradi. Yusuf Xos Hojib ham insonga aql berib qo`yilgan, shuning uchun ham yer yuzida har qanday mushkullikni oson yenga oladi, degan fikrni bildiradi. Navoiy dunyoda insonga qaraganda ulug`roq kamolot yo`q, deydi:

«Menga ne yoru, ne oshiq havasdir,

Agar men odam o`lsam, ushbu basdir».

Bordi-yu kamolotning eng yuksak mezonlariga odob va yuksak ma'naviyatni kiritadigan bo`lsak, bunda mukammalliknmg jihatlari aqli, axloqiy, madaniy, jismoniy faoliyat bilan bog`liq ekanligini ta'kidlash joizdir, bularning har biri ham, o`z navbatida, bir qancha sohalarni qamrab oladi. Insonni go`zal qiladigan uning hunari, ilmi va odobi deb aytish mumkin. Hunar ham, ilm ham odamni yuksaklikka ko`taradi, unga katta obro` va shuhrat keltiradi. Biroq shaxs yaxshi hunar sohibi bo`lsa-yu, odob va axloq bobida qusurga yol qo`ysa u shubhasiz, obro` topa olmaydi. Ilm sohibi haqida ham shunday deyish mumkin. Zamondoshlarimizning chuqr ilimi dunyoqarashga, zamonaviy bilim va muayyan kasb egasi bo`lishi sohasida uyg`unlikka erishishi O`zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi ruhiga singdirib yuborilganining boisi ana shunda.

Shuning uchun bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini “Muhammad Avfiyning “Jomi’ ul-hikoyat”asarini tarbiyaviy axamiyatini o’rganish.

deb nomladik.

**Tadqiqot ob'yekti:** Maktab o`quvchilarini misolida

**Tadqiqot predmeti:** Maktab o`quvchilariga Muhammad Avfiyning “Jami’ ul-hikoyat”asarini tarbiyaviy axamiyatini o’rgatish orqali yondoshish.

**Tadqiqot maqsadi:** O'sib kelayotgan yosh avlodlarimizni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda allomalarimizning boy milliy, ma'naviy, tarixiy an'analarga, urf-odatlarga, hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali o'g'itlarini o'rgatishni pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotda joriy etish.

**Tadqiqotdagi maqsadimizni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:**

- Mavzuga oid adabiyotlar to'plash va tahlil qilish;
- Allomalarimizning ma'naviy merosidan foydalangan holda shaxsni aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi vajismoniy rivolanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish;
- Yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashda allomalarimizning ma'naviy merosidan foydalangan holda kundalik turmushimizga bog'lab tushuntirish;
- Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirish;
- Ma'naviyatimizga har qanday tahdid kelajagimiz rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tushuntirish va uning oldini olishga o'rgatish.

**Tadqiqot metodi:** Pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, , savol-javob, suhbat, kuzatish metod.

**Tadqiqotning metodologik asosi:**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning istiqlol va ma'naviyatga, ta'lim-tarbiyaga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to`g'risidagi qonuni", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", allomalarimizning ma'naviyat borasidagi qarashlari, ma'naviyat va ma'rifatga oid me'yoriy hujjatlar, mavzuga oid ilmiy-xalq pedagogik manbalar.

**BMI ning tuzilishi va hajmi:** kirish, 2 bob, 4 ta reja, tajriba-sinov ishlari,

## **1-bob. Allomalarimiz o'gitlarining tarbiyaviy tomonlari haqida nazariy asoslari**

### **1.2. Allomalarimizni ma'naviy merosida ta'lim - tarbiyani yoritlishi**

Mutafakkirlarning asarlarida ko'plab ilg'or pedagogik fikrlar ifodalangan bo'lib, ular xalq pedagogikasining asosiy manbalaridan biri, yoshlar tarbiyasida muxim vositadir.

Go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish, Vatanni sevish, o'zligini anglash, fidoiylik, mehnatsevarlik, do'stlik, mardlik kabi xislatlar shakllanishining yo'l va uslublarini ko'rsatib bergenlar.

Xususan, Xorazmiyning «Aljabr», Forobiyning «Baxt saodatga erishuv haqida», «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Rostgo'ylar ne'matlari», Xoji Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat», Alisher Navoiyning «Hamsa» asarlarida tarbiya va ta'limga oid qimmatli fikrlar ilgari surilgan.

Shuningdek, Munis Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Bobur, Ulug'bek, S.Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlarida ham ta'lim-tarbiya masalalariga keng o'rinn ajratilgan.

Milliy ta'lim-tarbiya ishiga xalq pedagogikasini joriy etish, zamonaviy maktab maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uni mumkin qadar to'laroq amalga oshirish juda muhimdir.

**Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy**  
**(809-869).**

«Al-Jome’ as-Saxix» hamda «Al-adab al-Mufrad» asarlarida yaxshilik, yomonlik, ota-onalarga tarbiyasi haqida fikrlar bildirgan.

Asosiy g’oya yaxshilik qilish, yomonlikning oldini olish bo’lib, yaxshilikni kimga qilish kerak, degan fikr muhimdir. Ayniqsa, ota-onani rozi qilish zikr etilgan. Eng avvalo, yaxshilikni onaga qilish zarur. Ota-onalarga qariganda yordam berish, qarindosh-urug’dan uzilib ketmaslik, zaiflar bilan hushmuomalada bo’lish, ota-onaga shafqatli bo’lish lozim.

**At-Termizi (824-892)** hadislarida adashganlarga to’g’ri yo’l ko’rsatish, onani hurmat qilish, ota va qarindoshlarni e’zozlash, so’ngra duolar haqida yozadi.

Masalan: mazlumning duosi, musofir kishining duosi, ota-onalarning farzandiga duosi. Sabr-toqatli bo’lish, xushxulqlik, xushmuomalalik, musulmon birodarlarning bir-biriga yordam berishi, qarindosh-urug’lar bilan ko’rshib turish, yolg’iz kishilarga yaqindan yordam berish va boshqalar.

**Xo’ja Abduxoliq G’ijduvoniy (1103-1179)** ning merosida halol luqma, yaxshilik, iisoniylik, zikr, sabr, tavba kabi g’oyalar asosiy o’rin egallaydi, u xalq og’irini yengil qilishga chaqiradi. Halol mehnat bilan hayot kechirishni talab qiladi.

«Risolai sohibiya» asarida ta’lim-tarbiya, farzand, ota-onalar burchlari haqida fikr bildiriladi, poklik, kamtarlik, xushyorlik va ogoxlik to’g’risida bayon etiladi.

**Abu Nasr Forobi (1873-930)** fikriga munosib inson bo’lish uchun odamda ikki imkoniyat - ta’lim va tarbiya olish imkoni borligini uqtiradi. Ta’lim orqali namunaviy kamolotga erishiladi, tarbiya esa axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo’ldir deyilga.

Ustoz shogirdiga – zug’um qilmasligi, haddan tashqari yon bermasligi ham lozim, chunki ortiqcha zug’um shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg’otadi, bordi-yu shogird ustozning juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu hol unda ustozni mensimaslikka va undan hamda u beradigan bilimdan sovishga olib keladi.

Inson o’z mulohazasi, ziyrakligini hamisha oshirib borishi kerak. Agar aql yomonlikka qaratilsa, bu xislatlar razillik, makkorlik, aldamchilikka olib boradi.

Xalq aqlli kishilarni dono deb ataydi. Chunki ular insonlarga kerakli narsalarini o'ylab topadilar.

**Ibn Sino (980-1037)** Insonlarning sabrli va har qanday qiyinchilikka chidamli bo'lishining oqibati ularni yuksak axloqiylik va baxtga yetaklaydi, - deb uqtirgan. «Tadbir al manozil» asarida oila tarbiyasi masalalariga to'xtalgan. Asarning «Muqolsa dar axloq» bobida ota-onalar bolalarni tarbiyalashda ehtiyyotkor bo'lishi kerakligi, har kim o'z qadriga loyiq gaplarnigina aytishi, tilini saqlashi, gapirganda qo'lini silkitmasligi, odamlar soxtaligidan ta'ma qilmaslik, pastkashdan vafo kutmaslik lozimligi ko'rsatilgan.

**Abu Abdullo Rudakiy (858-941).** Axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiyada islomiy farz va sunnatlarni bajarish va boshqalar xususida, bola tarbiyasida ota-onaning burchi haqida muhim fikrlar ilgari surgan. Mardligu - jasoratni, shirinsuxanligu, mehribonlikni targ'ib qilgan .

**Abu Bakr Muhammad Ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy (935-993)** fikricha, do'stlashish murojaat emas-xushmuomalalikdir. Xushmuomalalik esa, chuqur tekshirish va o'rganishni uzoqqa cho'zmaydi ham, hisob va sarfni ko'tarmaydi ham.

Rostgo'y til yolg'on so'zlasa, tutilib qoladi. Muhabbat har qanday qimmat narsaning bahosidir.

Do'stlik munosabatlari eskirsa, yaqin qarindoshlikka aylanib ketadi. Inson ehsoni bilan, ehson sultonni bilan, sulton zamoni bilan, iymon imkon bilan, imkon esa makonini belgilab borishi bilandir degan masalalarni ochib bergen.

### **Abu Rayhon Beruniy ( 973 - 1048 )**

Beruniy ilm fanning muxlisi va buyuk homiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm fanning gullashiga bog'liq odamlarning baxti esa, uning ma'rifikatida deb bilgan. Ma'rifikat dushmanlariga yomon urf-odatlarga,adolatsizlikka qarshi bo'lган. U o'zining «Feruza», «100 hikmat», «Ayol makri» va bir qator yozgan naqllar va she'rlarida axloqiy tarbiyaning bosh mezoni mehnat tarbiyasi ekanini asoslab bergen. Xorazmiy o'zining muruvvat haqidagi g'oyasida hayrixoh

bo'lishlik, halol, haqgo'y va boylik orttirishga intilmaydigan, o'z mehnati hamda o'zgalarni mehnatini hurmatlaydigan sifatlarni nazarda tutgan edi.

### Ahmad Yassaviy (1041-1661)

«Devoni hikmat» nomli she'rlar kitobida insonlarni komillikka, din yo'lida fidoiylik, e'tiqodda sobitlik, halollik, poklikni da'vat etdi. Uning bir qator hikmatlarini sabru qanoat, javonmardlik mazmunidagi oyat, hadislarga yaqin fikrlar tashkil etadi. Ahmad Yassaviyning qalbni, dilni poklikka da'vat qiluvchi fikrlari qimmatlidir.

*Hamisha yaxshilik qilgin, ketarsan ushbu dunyodin,  
Qiyomat obi ro'yiga kerak kuni jurat qilsang  
Qudrat bo'lsa yuringiz, kuch bo'lmasa turingiz,  
Duo qila ko'ringiz, rizo bo'ling do'stlarim.  
Tilim so'rsam, qaror yo'q, qari bo'lsa, suror yo'q.  
Emishlarda halol yo'q, rizo bo'ling, do'stlarim.*

### Az-Zamaxshariy (1075-1144 yil)

Kishilarni halollik va rostgo'ylikka, to'g'rilikka, adolatli, insofli bo'lishga da'vat etadi: «Og'zingni misvok (tish yuvgich cho'plar) bilan pok qilding, koshki edi uni yolg'on - g'iybat, chaqimchilik, bo'xtan bilan iflos qilmasang». Insonning qadrini oshiruvchi ham, pasaytiruvchi ham til ekanligini qayd etib, «tilingni tiymasang, jilovingni shaytonga berib qo'yasan, qilichning yarqirog'ini zang yeysi. Yolg'on so'z esa tilning zangidan ham yomondir. Yolg'on gapirib g'alaba qozonganingdan ko'ra, rost gapirib yomonlikka uchraganing ma'qul. Rostgo'y odamga uning rosggo'yligi kifoya, yolg'onchiga esa, uning yolg'onchiligi kifoya», so'zlash madaniyati, odobi va nafosati inson uchun xush muomlalikning vositasi: «birovni koyimoqchi bo'lsang, xat bilan koyi, yuzma-yuz turib koyish ko'ngilni sindirur va so'z o'lchovsiz ketar», kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik, ota-onaga muhabbat bilan qarash, baxt-saodatga erishish uchun ilm fanga intilish zarur.

### Amir Temur (1336 -1406 )

Amir Temur ish va so'z birligini xush ko'rgan, u do'stga sodiq bo'lgan. O'zining «Tuzuklari»da quyidagi fikrlarni aytgan edi. Jumladan: do'stni sinovda

chiniqishi, do'st – dushman bilan murosa qildim, deb do'st bilan dushmanni sinovda kuzatganligini tahlil qilgan.

«Aqlli dushman nodon do'stdan yaxshiroqdir. Botirlik odam qal'asi,» - deb yozgandi, Amir Temur. U bunga doimo amal qilgan. Shu bilan birga u barcha amirliklarni, sipohlarni botir, jasur bo'lishga undagan. U jangu jadallarda botirlikni shior qilib olib, «Botirlik jangda bilinur», - deb takrorlagan edi.

### **Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505)**

Komil inson tarbiyasida odobni ta'riflagan.

Odob - bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini, o'zgalarni ham hurmat qilish, ish bilan birga o'zini va o'zgalarning obro'sini tushirmaslikdir.

Axloqiy tarbiya quyidagi yo'naliishlarga bo'linadi:

1. Olijanoblik, oqko'ngillik, rostgo'ylik, sobitqadamlik.
2. Insonparvarlik, xalqchillik, kechirimlilik.
3. Muomala odobi.
4. Dilozorlik, pastkashlik, tuxmatchilik, yolg'onchilik salbiy oqibatlarga olib kelishi.

5. Insonparvarlikning asosiy belgilari - ilm-ma'rifikatni egallash, hunarli bo'lishdir - deb maslahatlar beradi.

### **Zahiriddnn Muhammad Bobur (1483-1530)**

«Boburnoma»da ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalariga keng o'rinn bergan. Ya'ni, axloq normalariga rioya qilish aytildi. U ko'pchilik g'azallarida axloqning barcha normalariga rioya qilish zarurligini ta'kidlagan. Ayniqsa, insonlarga nisbatan mehr-oqibatli bo'lishni nazarda tutadi. «Boburnoma» asarida oila tarbiyasi, farzand tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. U farzand tarbiyasida quyidagi usullarni qo'llash lozimligini ta'kidlagan. Masalan, ota-onalarni farzand uchun vojibligi, insonlarga nisbatan, yaqinligini o'rgatish, mustaqillik, qatiylik va uddaburonlik uchun bolaga doimo talablarni qo'yish va uning ijrosini kuzatish.

Bobur she'rlarida inson kamoloti uchun ilmning naqadar zarurligi qayta-qayta uqtiriladi.

*Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O'rgangish ilm tolibi ilm kerak.  
Men tolibu ilmi tolibi ilmi yo'q,  
Men bor men ilmi tolibi ilm kerak.*

Demak, yuqoridagi g'azalda Bobur ilm toliblari «Hamma yuksak fazilatlarga ega bo'lishi lozim», - deb hisoblaydi. Ularning kamtar, sofdil, xalqni hurmatlaydigan fazilatlarga ega bo'lishini istagan. Bobur ta'lim-tarbiya masalasidagi bosh masala - Vatanga cheksiz muhabbatdir degan edi. Ya'ni, bundan maqsad ona Vatani sevishga, unga fidoiy, sodiq bo'lishga, o'z xalqiga xizmat qilishga chorlaydi, o'quvchi qalbida yuksak insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi. Bobur yana o'zining g'azallarida to'g'rilik, mehribonlik, vafodorlik, ezgulik, yaxshilik haqida yozadi. Bobur o'zining «Boburnoma» asarida Vatanning tabiatini, hamda iqlimini chuqur bilganligini namoyish etgan edi.

### **Abdulla Avlonny (1878-1943)**

O'zining faoliyati davomida ta'lim-tarbiyaga, maktab masalasiga alohida e'tibor berdi. Ayniqsa, axloqiy tarbiya to'g'risida o'zining qator fikrlarini bildirgan. "Axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning vatanga muhabbatidir", - degan edi. Ya'ni, har bir yoshni Vatanini sevishga, vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga sherik bo'lishga o'rgatmoq kerak. Vatanni sevgan xalq tilini ardoqlaydi deb, til va adabiyotni o'rganishga alohida e'tibor beradi.

Abdulla Avloniy o'z ijodida oila, ota-onas, bolalarni ilm - ma'rifat bilan bahramand qilish g'oyasini ilgari surgan. Abdulla Avloniy aqliy tarbiyaning mohiyati va mazmuni kengligini hisobga olib, uning qirralarini quyidagicha tasvirlagan edi.

«Aql ila ish tutish matonat, say'-g'ayrat, riyozat:

Pokizalik va nazokat, sabr-qanoat, intizom, vijdonli bo'lishdir.

Ma'lumki, XXI asrga qadar o'tgan davrda yuz bergan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga nazar tashlar ekanmiz, umuminsoniyat taraqqiyotida IX-XIII va XIV-XV1 asrlarda Sharqda uyg'onish davri ijtimoiy - madaniy hayotda katta o'zgarishlar bo'lganini ko'ramiz. Ayniqsa, Amir Temur asos solgan sultanat davrida ijtimoiy hayot yuksaldi, ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlandi. IX-XVI asrlarda yashab ijod etgan Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Imom Al Buxoriy, At-Termiziy, Sa'diy SHe'roziy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar jamiyatimiz tarixini va jahon madaniyatini rivojlantirishga beba ho hissa qo'shdilar. Buyuk Sharq mutafakkirlari o'zlari yaratgan turli fanlarga oid asarlarida ma'naviy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqdilar, insonning aqliy madaniyati tabiat qonun - qoidalarini amalga oshirishni bilish jarayoni omili - ilm-fan ekanini e'tirof etdilar. Ular ilmga, aqliy kamolotga intilish jarayonida odamlarda yuksak insoniy qadriyatlari, iymon, e'tiqod, mehr-oqibat, insonparvarlik, sabr - qanoat kabilar qaror topishiga ishondilar. Asrlar davomida ta'lim-tarbiya sohasida ajdodlarimiz orttirgan tajribaning kuchli qudratga egaligini va xalqchilligini angladilar. O'z ijodiy faoliyatlarida unga amal qildilar va ularni targ'ibot qildilar.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sifatini ko'tarishga, aqliy va ma'naviy salohiyatini mustahkamlash va rivojlantirishga, milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishga alohida e'tibor berishmoqda. Hozirgi paytda yoshlarimizni milliy qadriyat va an'analar ruhida tarbiyalashda, ularda ilm-fan va hunar o'rghanishga, vaqtning qadriga yetishni o'rghanishga, ota-onalarni, kattalarni hurmat qilishga, halol-pok, rostgo'y bo'lishni tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimizning hadislaridan tarbiyaviy soatlarda foydalanish, ularning hayoti va ijodiy faoliyatlariga bag'ishlangan turli tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.[16 ]

### **MA'NAVIY MEROS NAMUNALARI:**

1. Insoniyatga xizmat qilish hayotni tuzatish uchungina foydali emas. Ana shuy xizmat vositasida bilim saqlanib qolishi, jamlanishi va kelajakka yetkazilishi mumkin.

(Naqshbandiy)

2.Bir soat yoki ikki soat va undan ham ko'p vaqt, imkonli boricha, o'zni o'zga hayolu fikrlardan asrasin.

(M.S.Qoshg'ariy)

3. Ilm o'rganmasdan turib, ishga kirishmagil. Din yo'l-yo'riqlarini puxta bilishing, rioya qilishing uchun mudom fikr va hadis o'rgangil.

(Xo'ja Abdulholiq G'ijduvoniy)

4. Hushmuomalada bo'lgil. Ota-onangga, katta-kichikka minnatdorlik nazar ila boqgil.

(Xo'ja Abdulkholiq G'ijduvoniy)

5. Hayotdan o'qigel jahon bahsini,  
Undan topajaksan jahon naqshini.  
Aqling elagidan o'tkazib bir-bir,  
O'zing ajratib ol yomon yaxshini.

(Umar Hayyom)

6. Halol-pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadur, birovga xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir.

(Az-Zamaxshariy)

7. Ota-onaning nasihatlarini eshit, gapirganda ularning so'zini qaytarma, ko'p mol topsang, o'zingdan o'tib quturma, mag'rurlanib, fe'lingni buzma.

(Mahmud Qoshg'ariy)

8.Do'stlashish murojaat emas, hushmuomalalikdadur, hushmuomalalik esa chuqur tekshirish va o'rganishni uzoqqa cho'zmaydi, ham hisob va sarfni ko'tarmaydi ham.

(Al-Xorazmiy)

9. Ilm aqli bo'limgannilg ilmga baxilligi asliga qaraganda hukmdir, fazli bilan esa ma'rifatdir.

(Al-Xorazmiy)

10.Til so'zlovchi va istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

(Abu Rayhon Beruniy) –

11. Yordam berishning go'zalligi undan kishining tasalli topishida ko'rindi.

(Ibn Sino)

12. Ziyaraklik va tiyraklik deb, sezgi organlari yordami bilan narsalarning haqiqiy ma'nolariga tezda yetishiga aytildi.

(Ibn Sino)

13. Bilimsiz kishi quruq bo'yoq (savlat) va suratdir.

Bilimli kishining o'rni ko'kdan ham baland.

(Yusuf Xos Xojib)

14. Bilim tufayli odam buyuklashib, shuhrat topadi,

Kishilar orasida yuqorilashadi, (o'sadi) barcha ishi unadi.

(Yusuf Xos Xojib)

15. So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.

(Yusuf Xos Xojib)

16. Tilim so'rsam, qaror yo'q, g'arib o'lsa so'rар yo'q,

Emishlarda halol yo'q, rizo bo'ling do'stlarim.

(Ahmad Yassaviy)

17. Elga nasib kelmadi, joxu nasib,

Dek sharif keldi hayolu adab.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,

Past etar ul hayolni charxi baland.

(Alisher Navoiy)

18. Yigit ikki quvvatdan birining - aql yoki nafsning ta'siri ostida bo'ladi.

Agar aqli g'olib yigit uning ta'siri ostida bo'lsa, najot topadi. Nafsga ergashgan yigit falokat va halokatga uchraydi.

(Arastu)

19. Hayo - insonning abadiy go'zalligi va latofatidir,

Hayolsiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.

(Abu Ali Ibn Sino)

20. Aziz o'g'lim, bir odam senga tili burro ekani bilan maqtansa, sen ham so'zli ekaning va kerak bo'lgan joyda sukut qilishing bilan maqtan. Aqli komil kishi qisqa va ma'noli so'zlaydi. O'g'lim, sen ham so'zlash payti va sharoitini topib, oz va kerakli so'zlarni so'zla, mahmadonalik qilma.

(Luqmon Hakim)

21. Oz bo'lsa ham bilmoq uchun ko'p o'qimoq zarur.

(Sh.Montesk'e)

22. Tirishqoklik ilm siri yagona yo'ldir.

(B.Shou)

23. Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi.

(A.Sent-Eksyuperi)

24. Ma'rifatning maqsadi xarakterni tarbiyalashdan iboratdir.

(G.Spenser) .

25. Men fidokorona qilingan mehnatdan hosil bo'ladigan rohatni hech narsadan ko'rmadim. Chunki tanamning salomatligi, ruhimning saodatini mehnatda topdim.

(Aflatun)

26. Beadabning yomonligi faqat o'zigagina emas, boshqalarga ham zasar yetkazadi. Adabsizning ustiga kelgan ofat, falokat uning adabsizligidir. Har kim adabsizlik yo'liga qadam qo'ysa, qayg'u-hasrat o'tida yonadi.

(Jaloliddin Rumi)

27. Ma'rifatning maqsadi xarakterni tarbiyalashdan iborat.

(G.Spenser).

28. Qanday holatda bo'lishingdan qat'iy nazar, o'zingni shunday tutki, aql o'rganmoq uchun biror soatingni ham zoye ketkazma, axir aqlni nodondan ham o'rganish mumkin.

(Kobus)

29. Johillikdan boshqa odatliroq nima bor?

(A.Navoiy)

30. Jaholat homiyлариaslida insoniyatning eng ashaddiy dushmanlaridir.

(K.Gelvetsiy)

31. Jaholat zehnning zulmati, oysiz va yulduzsiz zulmatdir.

(T.Sitseron)

32. Adabning ko’rkamligi nasabning yaramas tomonlarini berkitadi. Fazilat aslzodalik va nasl bilan emas, balki ilmu odob bilan hosil bo’ladi. Adabsiz kishining nasabi oliyligicha qaralmaydi.

(Arastu)

33. O’quv qut beradi, bilim sharaf-shon,

Shu ikkov tufayli ulug’dir inson.

(Yusuf Xos Hojib)

33. Ko’p so’zdan ortiq foyda ko’rmadim,

Yana takror so’zlashdan naf topmadim.

(Yusuf Xos Hojib)

34. Hurmat ehson bilan barobardir, sotiladigan mol narxining

qarama-qarshisidir.

35. Qaramli kishi tahqirlansa ham azizdir.

(Al-Xorazmiy)

36. Rostgo’y til yolg’on so’zlasa, tutilib qoladi,

Muhabbat har qanday qimmat narsaning bahosidir.

(Al-Xorazmiy.)

37. Mehnatsiz shon-shuhratga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqli? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog’at va rohat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug’lik libosidan mahrum, yalang’ochdir.

(Abu Rayhon Beruniy)

## **1.2.Muhammad Avfiyning xayoti va ijodi.**

Muhammad Avfiy, Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Buxoriy (1172/77, Buxoro – 1233, Hindiston) – adabiyotshunos, tarjimon. Sharq adabiyotida tazkirachilik asoschilaridan.

**Hindistondagi Buxorolik qozi Umid Bekmuhammad Muhammad** Avfiyning xayoti va ijodi xaqida shunday deydi:

U bosqinchilarning o‘z yurtini istilo qilganini eshitgach, vataniga qaytmay, musofirlikda yurishni afzal ko‘rdi.Biroq u g‘oyat ilmli bo‘lgani sababli, o‘zga elda ham e’zozlanib, hokimlar tomonidan izzat-hurmat topgan.Unga yaratilgan sharoit sabab ikkita asar yozib qoldirdi.Ushbu shaxs Buxoroda tug‘ilib, Hindistonda qozi bo‘lib ishlagan Muhammad Afviy edi...

Uning asl ismi Sa’duddin Muhammad ibn Muhammad bo‘lib, 1172 yilda Buxoroda ziyoli oilada tug‘ilgan.Keyinchalik Avfiy taxallusi bilan ijod qilgan.Dastlab Avfiy “Dari forixok” madrasasida tahsil olib, Rukniddin Ma’sud Imomzoda, Tojiddin Umar ibn Ma’sud va Qutbiddin Saraxsiylardan saboq olgandi.

1201 yilda Samrqand hokimi Sulton Jaloliddin ibn Husayn Tamg‘ochxon g‘oyat ilmli bo‘lgani bois, Avfiyni o‘ziga kotib qilib oladi.Avfiy Samarqandda shu taxlit uch yil ishlaydi, ko‘plab do‘sllar orttiradi.Ammo u yanada ilmini oshirish, boshqa mamlakatlardagi odamlar hayotini o‘rganish maqsadida sharq bo‘ylab sayohat qiladi.Dastlab 1204-1205 yillarda Xorazmda bo‘lib, o‘z davri ning eng mashhur mutasavvuf shayxlaridan Najmiddin Kubro (1145-1221) hamda uning suyukli shogirdi Majdiddin Bag‘dodiyalar bilan uchrashadi. Ulardan din, tasavvuf g‘oyalarini o‘rganadi.Xorazmdan ketgach, Niso shahri orqali Xurosonga o‘tadi. Avfiy bu o‘lkaning Nishopur, Tus, Hirot va Marv, Seyiston shaharlarida bo‘ladi. Sayohatchi olim sifatida u bu shahri azimlarda 1218-1219 yillargacha hayot kechirgan. Xurosonning iqlimi, tabiat, tabobati, ta’lim sohalari, odamlarning hayot tarzini o‘rganadi.1219 yilda G‘azna orqali Movarunahrga qaytmoqchi bo‘lganida Chingizxonning vatanini zabit etganini eshitib, yurtiga qaytmay Hindistonga o‘tib ketadi.

1216-17 yillarda Xorazmda tanishgan Bag‘dodiyning Xorazmshoh Alovuddin Muhammad buyrug‘i bilan qatl etilganimni eshitib o‘kingan bo‘lsa, Najmiddin Kubroning vatanini himoya qilib shahid bo‘lgani, Chingizxonning Movarounnahrni xarobaga aylantirganidan xabar topib qayg‘uga botadi.

Ana shunday qayg‘u, hasrat bilan Hindistonda yashayotganida uni Uch viloyatining hokimi Nosirimddin Qoboji 1222 yilda o‘z xizmatiga oladi. So‘ngara esa Avfiy Gujorat shahrida qozi bo‘lib ishlaydi. 1228 yilda bo‘lsa Dehlining yangi amiri Shamsiddin Eltutmish (1210-1266) xizmatiga olinib, o‘sha yerda yashay boshlaydi. Taqdir yozig‘i sabab, Buxorodan Hindistonga borib qolgan Muhammad Avfiy shu tariqa Dehlida yashab, 1233 yilda o‘sha shaharda vafot etadi. Ko‘plab shaharlarni , turli hayot tarzini ko‘rgan Avfiydan “Lubob al-albob” va “Jomi’ ul hikoyat” nomli ikkita noyob asar yodgorlik bo‘lib qolgan.

“Jomi’ ul-hikoyat va lavomi ul-rivoyat” asarida asosan mingdan ortiq turli tarixiy shaxslar, shuningdek o‘zi eshitgan, ko‘rgan insonlar bilan bog‘liq hikoyatlar yozilgan.

Asarning to‘rtinchchi qismida ajoyib hodisalar, dengiz va quruqlikning xosiyatlari hikoya qilinadi. Boshqa boblarda bo‘lsa jug‘rofiyaga doir materiallar mavjud. Ayniqsa Rum, Vizantiya, Arabiston, Habashiston , Kaspiy dengizi va undagi orollar, u o‘lkalarda yashovchi xalqlar to‘g‘risidagi tafsilotlar qayd etilib o‘tiladi. Shu kabi shimoldagi yura xalqlari, sharqdagi uyg‘urlar, qadimgi Rusning xristian diniga o‘tishi, knyaz Vladimirning olib borgan siyosati ham yoritilgan.

Avfiy hikoyasidagi yana bir qiziqarli jihat, Uzoq Sharqqa doir hikoyalardan birida Ali tarafdarlaridan Saidlarning Xitoya qochib borib, uy-joy qilib qolganlari va keyinchalik Xitoy bilan musulmonlar orasida elchi-vositachi bo‘lganlari ko‘rsatilgan.

Umuman olganda Avfiy asarlari o‘z davrida va undan keyin ham sharqdagi eng o‘qimishli ommabop asarlardan hisoblangan. Shu boisdan ham Avfiy asarlari hindistonlik mashhur sharqshunos uprofessor Mhammad Nizomuddin, rus

olimlaridan Yu.Krchakovskiy,V.Bartoldlar e'tiborini tortgan. Natijada ular tomonidan Avfiy asarlari sharqshunoslikdagi eng mo'tabar manba darajasida baholanib tadqiq qilingan. Buxorodagi madrasada o'qigan. 1201 yil Buxoroda ilek (hokim) saroyida kotiblik qilgan. Xorazm, Xuroson shaharlari – Nishopur, Tuye, Hirot, Marvga sayohat qilgan, Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bag-dodiy kabi olimlar bilan muloqotda bo'lган. 1219 yilda Buxoroga qaytgan. Mo'g'ul istilosidagi Hindistonga ketib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashagan. "Lubob ulalbob" ("Mag'izlarning mag'zi") tazkirasini yaratgan (1222–23). 12 bobdan iborat mazkur tazkira mo'g'ul istilosidan avvalgi adabiyot va madaniyat arboblari haqida yagona manba sanaladi. 1223 yilda Krzi Muhsin Tannuhiy (Yu-asr)ning "Alfaraj" ("Shodlik") asarini arabchadan forschaga tarjima qilgan. A. B.ning ikkinchi yirik asari "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot" ("Xikoyatlar to'plami va rivoyatlar jilosi", 1228)da turli fanlarga oid ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya va rivoyat tarzida sodda bayon qilingan. Asar Sharqda keng tarqalgan, ayrim hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Avfiy XII asrning oxiri XIII asr boshlarida yashagan buxorolik mashhur adib va tazkiranevisidir. Uning «Lubobul-albob» («Idrok xulosalari») asari ilk tazkiralardan. Avfiy qalamiga mansub «Javomiul-hikoyot» tarixiy va folklor materiallariga asoslanib yozilgan bo'lib, uning o'sha davr ijtimoiy illatlarini fosh qiluvchi va yuksak insoniy fazilatlarni madh etuvchi hislatlarini ko'pgina Yevropa va Sharq tadqiqotchilari ta'kidlaganlar.

Buxorodagi madrasada o'qigan. 1201 yil Buxoroda ilek (hokim) saroyida kotiblik qilgan. Xorazm, Xuroson shaharlari – Nishopur, Tuye, Hirot, Marvga sayohat qilgan, Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bag-dodiy kabi olimlar bilan muloqotda bo'lган. 1219 yilda Buxoroga qaytgan. Mo'g'ul istilosidagi Hindistonga ketib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashagan. "Lubob ulalbob" ("Mag'izlarning mag'zi") tazkirasini yaratgan (1222–23). 12 bobdan iborat mazkur tazkira mo'g'ul istilosidan avvalgi adabiyot va madaniyat arboblari haqida yagona manba sanaladi. 1223 yilda Krzi Muhsin Tannuhiy (Yu-asr)ning "Alfaraj"

("Shodlik") asarini arabchadan forschaga tarjima qilgan. Uning ikkinchi yirik asari "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot" ("Xikoyatlar to‘plami va rivoyatlar jilosi", 1228)da turli fanlarga oid ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya va rivoyat tarzida sodda bayon qilingan. Asar Sharqda keng tarqalgan, ayrim hikoyalari o‘zbek tiliga tarjima qilingan

## XULOSA

O’zbek ma’rifatparvarlari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga o’z davrlarida katta e’tibor bergenlar. Shuning uchun hozirgi kunda ma’naviy merosdan foydalanish yoshlar tarbiyasida dolzarb masaladir. shunga ko’ra, biz o’zbek ma’rifatparvarlarining yuqorida zikr etilgan boy merosidan foydalanib, uni yoshlar ongiga yetkazishimiz zarur va shart.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviy manba bo’lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O’zbekiston xalqi avloddan- avlodga o’tib kelgan o’z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o’ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo’ldi.

## **2-bob. Muhammad Avfiyning hikoyatlarining o'quvchilarga orgatish yo'llari**

### **2.1. Muhammad Avfiyning hikoyatlaridan namunalar o'qib izohlash.**

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo`lib, u tarbiyaviy jarayonning mazmuni, metodi va tashkil etilishi masalalarini o`rganadi. Jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqiyoti o`sib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasi bilan bog`liq jarayonni ham qaytadan ko`rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi faylasuflarning tarbiya haqidagi fikrlariga va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko`rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarining aniq bir maqsadga qaratilgan, bir - biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o`zaro ta'sir ko`rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

### **Muhammad avfiyning Jomiy ul hikoyat asarlaridan namunalar.**

#### **Soyadoshlar**

Xalifa Mahmunqozi Yahhyo ibn Aksam bilan birga bog' tomoshasiga bordi. Xalifa boqqa borayotganlarda qozining soyasida bo'ldi, qaytishda esa oftob tarafda borishni ixtiyor qildi.

—Busafar soya taraf seniki bo'lsin, aks holda adlu insofga zid ish bo'ladi, dedi xalifa.

—Ko'p yillardan beri men sizning lutfu karamingiz soyasidaman. Bir soat oftobda qolsam nima bo'pti? — deb ko'nmadi qozi.

—Xalifa unga ofarinlar o'qidi, lekin bari —bir aytganini qildi. Bugal oftob tarafda bordi.

#### **Odobni kimdan o'rganish kerak?**

To'qayda o'ta yirtqich birsher maskan quribdi. Bo'ri bilan tulki ertayu kech uning xizmatida ekanlar. Kunlardan birkuni sher bir jonivorni o'ldirib, bo'rige «qani. Buni o'rtada taqsimla!» — deb buyuribdi. Bo'ri o'ljani uch qismga bo'libdi va birqismini sherning, ikkinchisini tulkining oldiga qo'yibdi; uchinchisini esa o'ziga olibdi. Bundan sherning fig'oni chiqib, o'z ulushini ham bo'rining oldiga otibdi. Bo'ri qo'rqqanidan dir-dir titrab, nimaqilarini bilmay qolibdi. Sher tulkiga «o'ljani senboshqatdan taqsimql!»—deb buyuribdi. Tulki o'ylab ham o'tirmay, har uchchala bo'lakni olib sherning oldiga qo'ydi. Sher tulkining farosati va odobiga qoyil qoldi.

—Sen bunaqa odobni kimdan o'rgangansan? — deb so'radi sher tulkidan.

—Sher bilan bo'ridan,— deb javob qildi tulki.

### **Xalifaning tushi**

Birkuni Horunar-Rashidning tushida tishlari bittaham qolmay tushib ketibdi. Ertalab folbinni chaqirtirib buning tahbirini so'rasha, u:

Ulug' xalifamizning umrlari uzun bo'lgay, lekin yaqin orada qarindosh-urug'laringiz bitta ham qolmay o'lib ketadilar,— debdi.

Xalifaning jahli chiqib: «uni yuz darra uringlar!» — deb buyuribdi. So'ng boshqa folbin chaqirtirib tushining tahbirini so'rabi.

Tushda ko'rganlaringiz shunga ishoraki, — debdi folbin tavoze bilan, xalifamizning umrlari uzoq bo'lg'ay, sizning soyayi davlatingizda qarindosh-urug'laringizdan boshqa barcha omonlik topgay.

Horunar-Rashid xursand bo'libdi va folbinga yuz dinor mukofot beribdi.

### **Darvishlar odobi**

Mashoyixlar jumlasidan bo'lgan Husayn Antokiy mana bularni hikoya qiladi: kunlardan birkuni kechqurun yoronlardan o'ttiz-qirqishi bilan suhbatlashib o'ltingan edik. O'rtada faqat bitta nonimiz bor edi, xolos. Nonni mayda-mayda burdalab dasturxonga qo'ydik, so'ng «harkim tortinmasdan istaganicha olib

yesin», deb chiroqni o'chirib qo'ydik. Oradan bir muncha vaqt o'tgach, chiroqni yoqdik. Qarasak, hech kim dasturxonga qo'l urmabdi.

Bir kuni podsho vaziridan so'radi: .— *Juvonmardlikning alomati nechta?*

Uchta,—deb javob berdi vazir,— birinchisi—xilof ish tutmaslik va vafodorlik; Ikkinchisi— ikkilanmay tashakkur ayta bilish; va nihoyat, uchinchisi— so'rabsurishtirib o'tirmay ehson berish.

Podsho so'rovda davom etdi:

—Juvonmard odamning o'zi qanaqa bo'ladi?  
—Tanimagan odamga ham mol baxshida eta oladi,zeroki tanish odamga molberguday bo'lsa,bu ikki narsadan xoli bo'lmas. Birinchisi— shafqatdan, ikkinchisi—riyokorlikdan. Juvanmardlikning oliy darajasi shuki,— dedi vazir so'zida davom etib,— kishi o'zini shu ikki narsadan torta biladi.

### **“OQIBATLI QO'SHNI”**

Abdurahmon Avzo'iy *arafa* kuni kechqurun uyda edi. Kimdir hovli eshigini qoqdi. Chiqib qarasa qo'shnisi ekan. U kambag'al va serbola odam edi. Mo'lтираб yalinib-yolvordi:

—E, xoja, mana ertaga hayit. Lekin kissamda qora chaqaham yo'q. Biroz pul berib-turolmaysizmi?

—Qani surishtirib ko'raylik-chi,— dedi u qo'shnisiga,va darvozani yopmay uyga qaytib kirdi va xotini bilanmaslahatlashdi. Xotini: «Bor-yog'i yigirma besh dirhamoqchamiz bor, bir qismini mayli qo'shniga beraylik,qolgan qismini ertaga o'zimiz hayitlik qilaylik», dedi.

—. Yo'q! — dedi u xotiniga,— qo'shniga oqchaning hammasini beraylik, shunday qilsak savobining bir qismi bari bir bizga tegadi.

### **“Basharang qiyshiq bo'lsa oynadan o'pkalama”**

Sulton Mahmud G'aznaviy bir kuni namozidan turib to'g'ri oyna yoniga bordi. Oynada o'z aksini ko'rib, xunukligidan ranjidi. So'ng bosh vazir xoja Ahmadga arz-hol qildi:

Oynaga qaragan edim husni-jamolimni o'zimga munosib ko'rmadim, axir husni-jamol do'stlarimning ko'payishi, taxtu-baxtim uchun kerak bo'lardi.

Xalq sizni do'st tutishini istasangiz— debjavob qildi vazir,— oltinni do'st tutmang. Saltanatning ustuvorligi husn bilan emas, oltin bilandir.

### **“Mehmondo'st badaviy va ochko'z xalifa”**

Kunlardan bir kuni xalifa Maxdiy ovga chiqdi. O'ljani quvib ketib, odamlaridan bir muncha uzoqlashdi. Mulozimlar va askar uni ko'p qidirdilar, lekin topolmadilar.

Xalifaga kelsak, u ko'p yo'l yurib bir vaqt badaviyning chodiri oldidan chiqib qoldi. Nihoyatda och edi. Buning ustiga kun ham issiq edi. Badaviyga murojaat qildi:

—E, mehmon do'st badaviy! Qani aziz mehmonni kutib ol!  
—Boshustiga,— dedi badaviy,— o'ltir, borimni olib chiqaman, lekin aybga buyurmaysan.

— Mayli,— dedi Mahdiy,— nimang bo'lsa olib chiqaver.

Badaviy birparcha pishloq bilan qattiq non olib chiqib mehmonning oldiga qo'ydi.

Mehmonbularni yeb olib, dedi:

Pishlog'ingiz, noning ko'p qattiq ekan. Yana nimang bor?  
Badaviyning bisotida bir ko'za sharobi bor edi, olib chiqib uning oldiga qo'ydi. Mehmon sharobdan bir kosa quyib ichdi, so'ng lablarini peshi bilan artib badaviyga murojaat qildi:

—Meni taniyotibs-sanmi?  
— Yo'q,— deb javob berdi badaviy.  
— Men,— dedi mehmon,— xalifa Mahdiyning xos mulozimlaridan bo'laman.

— Balkim shundaydir,— dedi badaviy.

Mehmon yana bir kosa sharob quyib ichdi, so'ng badaviydan so'radi:

— Haqiqatan ham meni tanimaysanmi?

— Yo'q, tanimayman,— dedi badaviy.

Men xalifa Mahdiyning sipohsolori bo'laman,

— dedi mehmon.

Balkim shundaydir,— deb qo'ya qoldi badaviy.

Mehmon yana birkosani to'latib ichdi, so'ng yana o'sha savolni qaytardi.

Nima qildeysan? — dedi badaviy toqati toq bo'lib.

Men xalifa Mahdiy bo'laman,— dedishira kayf bo'lib qolgan mehmon ko'kragiga mushtlab.

Badavi!! ko'zani uning qo'lidan tortib oldi va og'zini mahkamlab birchetga olib qo'ydi. So'ng dedi:

Yo, Alloh! Boshda xalifaning xosmulozimiman deb ichding, keyin sipohsolarman, deb yana ichding. Endi bo'lsa xalifalikka davo qilyapsan. Bordiyu yana birkosa ichguday bo'lsang, balki payg'ambarlik davo qilarsan?

### **“G'ulombachchaning odamiyligi”**

Birkuni bir to'da yigit bir mo'tabar odamning uyiga mehmon bo'lib borishdi.

Mezbon mehmonlarni o'tqizib, g'ulombachchani chaqirdi va baland ovoz bilan «sufrani olibchiq!»—deb buyurdi, lekin mehmonlarga sezdirmay unga chap ko'zini sal qisib qo'ydi. G'ulombachcha ichkariga kirganicha hayallab ketdi. Mezbon esa mehmonlar oldida biroz xijolat chekdi. Taxminan bir soatlardan keyin g'ulombachcha sufrani olib chiqdi.

Xoja g'ulombachchaga o'shqirdi:

— Nega shuncha yo'qolib ketding?!

— Banda sufrani olib ochsam,— dedi g'ulombachcha,— chumoli bosib yotgan ekan. Uni shu alpozda mehmonoldiga olib chiqsam odobdan bo'lmas, dedim; Yana-nonni bechora nonxo'rlardan tortib olishni muruvvatsizlik debbildim va chumolilar sufrani bo'shatib chiqib ketgunlaricha kutdim. Mehmonlardan biri dedi:

Tangritaolo sufraga baraka ato qilsin, chunkiu shuncha chumoliga taom beribdi.

### **“Podsholikning inqirozi nimadan?”**

Abdulla Tohirdan o’g’li so’rabdi:

- Podsholiknning inqiroziga nima sabab bo’ldi?
- Kechalari tinmay sharob ichdik; ilk sahardan qoshqorayguncha namozdan bosh ko’tarmadik; o’zimiz mashg’ul bo’lmay, davlat ishlarning nomunosib odamlarning qo’liga-topshirib qo’ydik,
- dedi Abdulla Tohir.

### **“G’oyibdan kelgan baxt”**

Bag’dodlik bir yigitga otasidan katta mol-mulk qoldi. Lekin tez orada uni sarflab bitirdi.Ko’p o’tmay og’ir ahvolga tushib qoldi. Bir muncha vaqt nima qilishini bilmay yurdi. Oxiri *Dajla* bo’yniga bordi va o’zini g arq qilmoq maqsadida suvga otdi. Shu payt daryo o’rtasida bir qayiq turgan edi. Qayiqchi uni suvdan tortib oldi.

- Qayoqqa bormoqchi eding?— deb so’radi undanqayiqchi.
- Qayoqqa borishimniham bilmayman, qayoqdan kelayotganimni ham,— javob qildi yigitcha.

Qayiqchi mulohazalik odam edi, biroz o’ylab ko’rib, o’z-o’ziga dedi: «Bu yigitmakkor, yomol-dunyosidan ajragan, yoki birontani yaxshi ko’rib qolgan bo’lsa kerak». So’ng dedi:

E, yigit! Hol-ahvolingni so’zlab ber.

Yigitcha mol-mulkidan ajrab, endi qo’li qisqa bo’lib qolganini aytdi. Bardam bo’l,— dedi uni yupatib qayiqchi,— seni Daryoning narigi qirgog’iga olib borib qo’yaman.Uyog’i tangri-taolo ishiningni o’nglab yuborsa ajab emas.Shutariqa qayiqchi uni daryoning narigi sohiliga olib borib qo’ydi. U shaharga qarab yo’lga tushdi va bir vaqt *masjidi jomi* oldidan chiqib qoldi. Bu yerga tumonat odamyig’ilgan ekan. Yigitcha o’zini masjid ichkarisiga urdi. Xalq xalifaning haramidagilardan birni saroy xizmatchisiga nikoh

qilish munosabati bilan to'plangan ekan. Nikoh marosimi tugagandan so'ng xodimlar o'rta ga chiqib, oldingi qatorda o'tirganlarga birtovoqdan zarqo'yib chiqishdi. Tovoq-larga mushku anbar sepilgan edi. Lekin yigitchani hechkim yodga ham olmadi. .Xodimlardan biri bu ahvolni xalifaga borib aytdi:

—Imomlar va fozikishilar orasida to'y hadyasiga munosib bir yigitcha o'tiribdi.

Nima, uning ismi ro'yxatga kiritilmagan ekanmi?— deb so'radi Ma'mun. Ha, dedi xodim, kiritilmagan ekan, chunki ro'yxat to'lib qolgan ekan,qani undan so'rab ko'ringlar-chi, dedi Ma'mun xodimga,podsho va xalifalarning haramiga chaqirilmagan odamning kirishi mumkin emasligini bilarmikan?

Yigitcha o'sha xodimga dedi:

Yo'q eshitmaganman. Ilgari bunaqa ishni qilmaganman ham,

Ma'mun uni huzuriga chaqirib dedi:

—Seni bu yergacha chaqirishdimilar?

—Yo'q, ana ularni chaqirishganlar,— dedi ubhadyadan bahramand bo'lib o'lirganlarni ko'rsatib.

—Bizning xodimlarimizni nazarda tutayotibsanmi?

— deb so'radi xalifa.

—Ha, sening xodimlaringni nazarda tutayotibman,

—dedi yigtcha,— haramingga kirish menga ham nasib bo'lgan ekan, kelib qoldim.

Yigitchaning dadilligi va sofkilligi xaliifaga xush keldi.

Bu yigitni ham xos mehmonlar ro'yxatiga yozib qo'yinglar,— deb buyurdi u xodimiga.

### **“Karruxlik dallol”**

Karruxlik bir dallol manabularni hikoya qiladi: Menga tanish bir savdogar haryili Xurosonga kelib ko'p matolarni Bagdodga olib ketardi. Men bo'lsam u olib kelgan matolarni pullab, kerak mollarni olib berardim va buning orqasidan bir qish

ishlamay yebyotsa yetadigan daromad orttirib olardim. Keyingi yil u nimagadir kelolmadi. Buning oqibatida tirikchiligidan putur yetdi. Ahvolim og'irlashdi. Uyda o'ltirib qoldim. Birkuni ko'chaga chiqdim va boshim oqqan tarafga qarab yo'l oldim. Kun nihoyatda issiq edi. Dajlaping bo'yiga bordim va bir soatlar chamasi kezdim. Qaytishda daryoning qirg'og'I bo'ylab yurdim. U yer qumloq ekan. Bir vaqt bir oyog'im qumga kirib ketdi. Oyog'imga bir narsa ilinganday bo'ldi. Oyog'imni qiyinchilik bilan tortib oldim. Qarasam panjam orasiga bir nima ilashib chiqibdi. Uni oldim. Qarasam ichi to'la zar bir xalta ekan. Shoshib unga bordim va apil-tapil xaltani ochdim. Ichidan ming dinor oqcha chiqdi, O'z-o'zimga dedim: «Faqiru kambag'alligim o'zimga ma'lum. Bu oltinlarni yaxshisi sarf qilmay, yashirib qo'yaman. Egasi topilguday bo'lsa qo'liga topshiraman, yo'qsa...» Oradan yetti yil o'tdi. Egasi topilmadi. Shundan keyin oltinlarni sarmoya qilib boyib ham oldim. Sarmoyam yuzming dinordan oshib ketdi. Kunlardan bir kuni do'kon oldida o'ltirgan edim. Ko'rinishidan g'arib, lekin bama'ni bir odam oldimdan o'tib qoldi. O'tayotib qarshimda to'xtadi va menga salom berdi. Sadaqa tilayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladim va biron narsa hadya qilmoqchi bo'ldim.' U menga yana bir bor tikilib qaradi-yu,' yo'lida davom etdi. Yuragim dukillab uraboshladi, dilim «tezroqbo'l, uning orqasidan bor!»— deb buyurdi. Uning ketidan bordim, to'xtatdim. Diqqat e'tibor bilan qarasam haligi men undan ko'p naf ko'rgan bag'dodlik savdogar ekan. Uni bag'rimga bosdim, yuzlaridan o'pib, darhol hammomga olib bordim va yuvib-tarab, kiyim-kechagini almashтиrdim. So'ng qornini to'yg'azib hol-ahvol so'radim.

U menga manabularni hikoya qildi: ko'p yil yurtma -yurtkezdim. Bir kuni viloyat hokimi meni chaqirtirib dedi: «Bir dona qimmat baho yoqutim bor. Unga hechkim, hatto xalifaning ham kuchi yetmaydi. Uni beraman, Bag'dodga olib borib pulla, puliga esa kerakli mol sotib olib qayt», O'shayoqutni olib ham yopichiga mahkam qilib tikdim.Ustiga esa ming dinor oqcha tashlab qo'ndim, Bag'dodga keldim. Jazirama issiq edi. Dajlagaborib cho'mildim. Lekin, ming afsus, hamyonni daryo bo'yida unutib qoldiribman. Oradan bir soat chamasi vaqt o'tib qarasam hamyon yo'q. Shoshib daryo bo'yiga qaytib bordim. Ko'p qidirdim,

lekin uni topolmadim. Shundan keyin o'z-o'zimga dedim: «Yoqutning bahosi yetib borsa uch ming dinordir. Bor-yo'gimni sotib, pulini yoqut egasiga qaytaraman». Yurtimga qaytib kelganim hamon hokimning huzuriga bordim va bo'lган gapni unga aytdim." Bag'doddan olib kelgan mollarimdan istaganini berdim. Lekin u birgapida turib oldi.

— Yoqutning bahosi ellik ming dinor turadi. Yo ellik. Ming dinor to'la, bo'lmasa yoqutni qaytarib ber,—dedi u.

Shu onda yoq meni qamab qo'ydi, mol-mulkimni ham tortib oldi. SHutariqa yetti yil qamoqda yotdim. Shaxar ulamolarining shafi'ligi bilangina meni qamoqdan ozod qildilar. Lekin, baribir, do'stu dushmanning malomatiga chidab turolmadim, va shahardan chiqib ketishga majbur bo'ldim. Birdan-bir tilagim seni uchratish edi, mana, xudoga shukr, murodimga ham yetdim.

Tirikchilik xususida kengashib olsak,—dedim men unga.

U taklifimni ma'qulladi. Tangri taolo, dedim men unga, sening sofi ehtiqodingni e'tiborga olib, yo'qotgan mol-mulkingning bir qismini o'zingga qaytarib beradigan bo'ldi.

Qanaqasiga? taajjubandi u.

Bundan roppa-rosa yetti yil muqaddam, dedim men unga, sen aytgan yerdan xalta topib oldim. U sen tasvirlagan o'sha xaltaning o'zginasi. Ichida ming dinor oqcha bor ekan. Uni omonat sifatida saqlab qo'yanman. Ayni soatda o'sha ming dinor oqchang yonimda, mana ol, mayshatingga sarfla.

Ming dinor oqchani unga sanab berdim.

Xaltasi qani, u ham yoningdami? deb so'radi u.

Ha, yonimda.

Uzat buyoqqa.

Xaltani kissamdan chiqarib tutqazdim. Xaltani olib oqichini so'kdi va rummoniy bir parcha yoqutni topib oldi. Undan tarqalgan nurdan do'kon ichi yop-yorug bo'lib ketdi. Xoja yoqutni ko'rishi bilan hushdan ketdi. Oradan bir soat vaqt o'tib, o'ziga keldi va qo'llarini ochib, tangri taolonning cheksiz marhamatiga duo qildi. Yoqutni hamyoniga soldi-yu, lekin ming dinor oqchani ro'paramga qo'yib:

«buni olmayman», debturib oldi. Ko’p mubolag’adan keyin undan faqat uch yuz dinorini oldim, qolganini esa menga baxshida qildi.

### **“Uch og’a-ini”**

Saraxslik Sa’id ibn Nasr degan odamning uch o’gli bor ekan. Birinchini ismi Avn, ikkinchisiniki— Sulama, uchinchisi esa Ibrohim ekan. Ibrohim juda badavlat, Avn ham undan qolishmas ekan. Ularning ichida faqat Sulama g’oyatda faqir va kambag’al ekan. Bola-chaqasi ko’payib, ahvoli birmuncha og’irlashgach, o’rtancha og’asi Avpga arz-hol izhor qildi, yordam so’rab dedi:

Og’am Ibrohim o’ziga tinch, badavlat odam. Agar menixizmatga olib, begonaga nimani ravo ko’rsa va menga shunibersa, rozi bo’lib xizmatini qilardim. Shu bilan eson-omon tirikchilik o’tkazgan bo’lardim, Avn inisining gaplarini Ibrohimga borib aytdi. Ibrohim uning iltimosini qabul qildi va Sulamani xizmatga oldi. Sulama

Og’asining barcha xizmatlarni jon-dili bilan bajarib yurdi.

Bir kuni Avn xalifa Mutavakkilning noyibi amir Yusuf bilan uchrashib qoldi. Gap orasida amir Yusuf «Menga halol bir hizmatkor kerak bo’lib qoldi», dedi. Mening birovning omonatiga xiyonat qilmaydigan bir inim bor, deb javob qildi Avn.Uni, dedi amir Yusuf, mening huzurimga olib bor!

Avi Sulamani amir Yusufning huzuriga olib bordi. Amir unga iltifot ko’rsatdi va kichik bir xizmatga tayinladi. Amir Yusuf oqchani ayamay sarf qilardi; hisob-kitob bilan ham ishi yo’q edi. Ko’p o’tmay kirim-chiqim ishlarning Sulamning qo’liga topshirdi. Natijada chiqim kamayib, kirim ko’paydi. Shundan keyin amir Yusufning Sulamaga mehri oshdi va mansabini yuqori ko’tardi.

Sulama shu tariqa ko’p yillar davomida amir Yusufning xizmatini qildi, omilkorlik namunalarini ko’rsatdi. Amir Yusufning esa unga nisbatan izzat-hurmati va e’tiqodi tobora ortib bordi. Oqibatda Sulama ancha badavlat bo’lib oldi. Martabasi yana ham oshdi.Kunlardan bir kuni Mutavakkil amir Yusuf bilan gaplashib o’tirganda unga maslahat soldi:

Farzandlarimning kelajagini o'ylab qoldim.Ularga tegishli merosni belgilab, biron ishonchli odamni mutassaddi qilib tayinlab o'ysam,degan fikrga keldim.Amir Yusuf o'rnidan turib qo'l qovushtirdi:

Qulingizning, dedi u xalifaga, halol va ishonchli bir odami bor. Amir Yusuf unga Sulamani ta'rif-tavsifladi, so'ng uni mutavakkilning xizmatiga olib bordi.

Mutavakkilning ellik nafar o'g'li va ellik qizi bor edi. O'g'illaridan har biriga uch yuzming dirhamdan, har bir qiziga bir yuz ellik ming dirhamdan meros tayin qildi. Ularning xo'jaliklarini boshqarish ishini esa Sulamaga topshirdi.

### **“Hasadchining jazosi”**

«Xulq ul-inson» kitobida bunday deyilgan: bir hasadchi o'tgan ekan. Uning mo'min va taqvodor qo'shnisi bor ekan. Hasadchi uni ko'rolmas,lekin, nimagadir, uning hasad o'qi qo'shnisini nishonga ololmas ekan. Oxiri G'ulomning avrab-savrab ishga soldi.

Bilib qo'y, dedi u bir kuni g'ulomiga, qo'shnim jonimga tegdi. Unga biron shikast yetkazish uchun ko'p urindim, lekin ish chiqmadi. Uning dastidan xotirjamligimni yo'qotdim. Turmushim turmushga o'xshamay qoldi. Meni o'ldirib uning tomiga olib chiqib qo'y. Ertalab esa meni uning hovlisida ko'radilar. Ana o'shanda u malomatga qoladi. Mol-u. Jonidan ayrıladı. Shu xizmating uchun seni tamoman ozod qilaman. Ozod bo'lganining haqida xat ham qilib beraman. Ellik dinor oqcha ham olasan. Keyin bu shaharni tark etib boshqa shahardan maskan qilishing mumkin.G'ulom javob qildi:

E, xoja! Aqli odam bunday ish qilmaydi. Unga hasad qilib nima orttirasan?Lekin g'ulomning gaplari unga kor qilmadi. Shundan keyin jahli chiqib xojasining boshini shartta kesib oldi va qo'shnining tomiga uloqtirdi. Ertasi kuni esa bu shaharni tark etib Isfahonga qochib ketdi.. Qo'shnining esa qotillikda ayilab sultonning odamlari hibisga oldilar. Lekin ko'p o'tmay yaxshi odamlarning shafi'ligi bilan ozod etildi.

## “Hasadning oqibati”

Ulug’ bir podshoning Abu Tamam ismli fozil va dono vaziri bo’lgan ekan. Podshoning yaqin mulozimlari unga hasad qilib, mol-ujoniga qasd qildilar. Vazir hayoti xavf ostida qolib, bir kuni kechasi payt poylab mol-mulkidan ko’targancha olib shahardan chiqib qochdi. Ko’p yo’l yurib Olon degan mamlakatga borib qoli. Tog’ yon bag’riga chodir tikib, o’sha yerni makon qildi. Bora-bora unga Olon mamlakatining havosi yoqib qoldi, zilol suvlari xush keldi. Odamlari bilan chiqishib ketdi. Ko’p o’tmay Abu Tamamning ovozasi shaharga ham borib yetdi. Undan Olon podshosi xabar topdi.

Yurtimizda ulug’ bir zot paydo bo’ldi,— deb xabar berdilar unga.

Podsho Abu Tamamni saroyga chaqirtirdi. Ilgari podsholar xizmatida ko’p bo’lgani uchun cho’chimay saroyga bordi. Olon podshosi uni yaxshi kutib oldi va hol-ahvol surishtirdi. So’ng uni saroy xizmatiga taklif qildi. Abu Tamamning maqsadi ham shu edi. Shuning uchun Olon podshosining taklifini qabul qildi va uning xizmatida qoldi. Podsho unga turli-tuman yumushlar buyurib, obro-ehtiborini yuqori ko’tardi. Bora-bora u bilan kengashmay biron ish tutmaydigan bo’lib qoldi. Bir kuni Abu Tamam podshoga arz qildi:

Bechora bir odamman. Siz esa, hazrati oliylari, bandaga haddan ortiq iltifot ko’rsatayotibsiz. Boshqalar hasad qilib, adovat girdobida qolib ketmasam, deb qo’rqaman. Ularning so’zlariga quloq solmagaymiz,— deb javob qildi podsho.

Abu Tamam xotirjam bo’ldi va xizmatida davom etdi. Podsho esa unga turli-tumannavoz ishlar ko’rsatdi. Bir vaqt saroyda Mushayyir degan odam paydo bo’ldi. Podshoning to’rt vaziri bo’lib, Mushayyir ularga boshliq ekan. Mushayyir Abu Tamamga hasad qila boshladi. Podsho bo’lsa tamom Abu Tamamning qo’liga qarab qolgan edi. Buni ko’rib Mushayyirning dodi fig’oni olamni tutdi. Oxiri u vazirlar bilan gapni bir yerga qo’yib, Abu Tamamni yiqitishga qaror berdilar.

Turkiston xonining go'zal va oqila bir qizi bor edi. Tevarak-atrofning podsholari unga odam qo'ygan, lekin maqsadiga yetishmagan, sovchilari esa boshidan ajragan edilar. Mushayyir va uning gumashtalari bundan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. Ular fursat topib podshoga Turkiston xonining qizidan gap ochdilar. Bora-bora uning qalbini o'sha malikaga rom qildilar. Ko'p o'tmay podsho o'sha go'zal malikaning ishqida sav doyi bo'lib qoldi. Vazirlarni chaqir tirib bu xususda kengash o'tkazdi. Bu *matlubning-* ro'yobga chiqishi va o'sha mahbubaning

visoliga yetishning tadbiri qanday? — deb so'radi podsho. Vazirlar bir og'izdan dedilar: Turkiston xonining huzuriga sovchilar yuborib qizini so'rating, zora, rozi bo'lsa. O'ylaymizki, Turkiston xoni Olon podshosi bilan quda bo'lishdek sharafdan mamnun bo'lur, g'oyibdan kelgan bu baxtni g'animat bilib, qizini berishga rozi bo'lur.

Sovchilikka kim munosib erur,— deb so'radi podsho.

Hech kim Abu Tamamning oldiga tusha olmaydi,— dedilar vazirlar bir og'izdan.— U podsholarning xizmatida ko'p bo'lgan, odob va muomala yo'lini yaxshi biladi. Bu fikr podshoga ma'qul tushdi. Abu Tamamni chaqirtirib unga o'z maqsadini aytdi. Abu Tamam ta'zim qilib dedi:

Jonimiz podshoga fido bo'lgay. Shohimning amr farmonlari bosh ustiga.

Podshoning amri bilan safar egar-jabduqlari hozirlandi. Abu Tamamni katta sovg'a-salomlar bilan Turkiston xonining huzuriga jo'natdilar.

Xon uni izzat-ikrom bilan kutib oldi, uning sharafiga katta ziyofat berdi. Ziyofatda unga yonidan joy ko'rsatdi. Abu Tamam o'z podshosining sovg'a salomlarini topshirdi, so'ng quda-andalik xususida so'z ochdi.

Mening uchun Olon podshosi bilan quda-anda tutinishdan ko'ra ortiqcha baxt bormi, o'zi? -dedi xon.

-U ulug' podsho, mamlakati bepoyona. Roziman. Lekin bizning bir odatimiz bor. Ertaga sahar bilan borib qizni o'z ko'zing bilan ko'r. Xo'p o'zingga kengash. Bordi-yu shohingga munosib topsang, so'ng fotiha qilurmiz. Yoqmaydigan bo'lsa zorimizbor, zo'rimiz yo'qdir. Oxiri nadomat va pushaymonga o'rinn bo'lmasin.

Abu Tamam ta'zim qilib dedi:

Ul karima sizning pushti kamariningizdan paydo bo'lgan ekan, demak u xon avlodi. Men o'zpodshohimga mahramman, sening haraminga emas. Shunday ekan, uning huzuriga kirish u yoqda tursin, hatto devorining soyasiganazar tashlash ham gunohi azimdir.

Xon Abu Tamamning aqlu farosati, axloqu odobiga tahsin o'qidi.

Xudoga shukrki, podshoning, uning umri uzun bo'lsin, senday odoblik xizmatkorni tarbiya qilibdi. Sirimni senga aytsam bo'ladi. Sendan avval kelgan sovchilar mening bu imtihonimdan, o'tisha olmadı. Malikani ko'rishga rozi bo'lishib, boshlaridan ayrildilar. Senda bu qadar hurmat va odob namunalarini ko'rib, angladimki podshohing ham aqli odam ekan.; Shundan keyin ulamolar va qozini chaqirtirib malika bilan Olon podshosining nikohiga fotiha berdilar. Abu Tamam malikani Olonga olib keldi...

Podsho bilan Abu Tamamning yaqinligi yana ham ortdi. Vazirlar buni ko'rib sarosimaga tushdilar. Oxiri yangi hiyla-nayrang o'ylab topdilar. Podshoning oyoqlarini o'qalovchi ikkita turk g'ulomi bor edi. Vazirlar ularni ishga soldilar. «Abu Tamamaslida Turkiston xonining qiziga o'zi oshiq bo'lib qolgan», degan gapni o'rgatdilar. G'ulomlar bir kuni kechqurun podshoning oyoqlarining uqalab turib podshoga shugapni oshkor qildilar:

E, birodariaziz, dedi g'ulomlordan biri sherigiga, eshitdingmi., anovi tuz ko'rqilg'ur Abu. Tamamshohimizning haq-ne'matiga xiyonat qilibdi. Yaqinda bir odamga debdi: «agar Turkiston hokimining qizi men bilan do'stlashib qolmaganda, hargiz yurtini tashlab bu yerlarga kelmas. edi?». Podsho bu gaplarni eshitib g'azablandi va o'z-o'ziga mulohaza qildi: «Bordiyu bugaplarni mansabdorlardan eshitganimda hasadga yo'yib qo'yaqlardim. G'ulomlarning Abu Tamamga qandoq gina-qudurati bo'lishi mumkin?» Kechasi bilan mijja qoqmay iztirob chekdi. Ertabilan Abu Tamamni chaqirtirdi:

Agar podsho biron kishining boshnisi lasa, inomu-ehson bilan tarbiyat qilib, martabasini ko'tarsayu, u bo'lsa xojasining haq-huquqiga xiyonat qilib, uni badnom qilsa, unday odam qopday jazoga loyiq? — dedi Abu Tamamga tik qarab.

Unday odamni o'limga mahkum etmoq lozim. Bu bilanro'yи zamin nopoqlarning bittasida n toza bo'ladi, deb javob qildi Abu Tamam.

Podshoning amri bilan Abu Tamamni o'ldirdilar. Podshoning malikadan ham ko'ngli sovib ketdi. Unga boshqa iltifot qilmay qo'ydi.

Lekin podsho bir necha kundan keyin g'aroyib birvoqeining ustidan chiqib qoldi. Bir kuni kechasi uyqusи qochib tashqariga chiqdi. Saroy atrofini aylanib yurib haligi ikki turk g'ulomining yotoqxonasi oldiga borib qoldi. Ichkaridan ovoz kelardi. Ular bir xalta zarni bo'lisha yotib, jan-jallahib qolishgan ekanlar. Ulardan biri dedi:

O'sha gapni podshoga aytgan men bo'laman. SHuning uchun oltinning katta qismi menga tegishli.

Yo'q, dedi ikkinchisi, qal'ani olgan ham, lashkarni yo'q qilgan ham sen emassan. Menga o'sha bo'hton gapni aytib ne sharaf ortirding?!

Podsho g'ulomlarning mojarosini eshitib, hamma narsaga tushundi. Ertalab ularni huzuriga chaqirtirib, taxdid va po'pisa bilan so'roq qildi. Oxiri ular iqror bo'lishdi.

Bu gapni bizga. Vazirlar o'rgatgan edi, dedilarular tavba-tazarruh qilishdilar.

### **“Maqtanchoqning qismati”**

Bir kuni arining ko'zi zo'r mashaqqat bilan iniga don sudrab borayotgan chumoliga tushdi. Ta'magirligi tutib Unga dedi; E, chumoli! O'zingni buqadar azobga qo'yishingdan muddao nima? Bu baloni ne sababdan extiyor qilding? Mening hayotim, yemsh ichishimga qarab ish tut sang bo'lmaydim? Podsholar dasturxonnidagi har qanday taom mensiz ye yilmaydi. Shamolni minib uchaman, istagan erga qo'naman, nayzamni yovning jigariga sapchaman. Xullas, nimani ko'nglim tilasa shuni ye yman.

So'ng parvoz qildi va to'g'ri qassobning do'koniga borib kanoradagi osib qo'yilgan go'shtga qo'ndi. Qassob qo'lida pichog'ini tutib turgan edi, uni mo'ljalga oldi va nimtalab tashladi. Shu yerda poylab turgan chumolilar esa uni sudrab ketdilar.

## **“OCHKO’Z MUSHUK”**

Muhammad ibn Ahmad Bagdodiyning mushugi bor edi. Har kuni unga bir parchadan go’sht berib turardi. Bir kuni mushukni kabutarxonada tutib oldilar, so’yib terisini shildilar va uni cho’yonga ilib kabutarxona eshigiga ilib qo’ydilar. Shu payt favqulodda Muhammad ibn Ahmad Bagdodiy kabutarxona oldidan o’tib qoldi va mushugini shu alfozda ko’rib dedi: Biz berib turgan bir parcha go’shtga qanoat qilganingda bu ahvolga tushmagan bo’larding.

## **“ODOBSIZ NADIM”**

Fazl ibn Sa’lning ikki nadimi bor edi. Birinchisining ismi Nasribn Voris, ikkinchisini— Sobnt ibn Shirvon, Ular bir kecha sharob bazmi avjiga chiqqan bir paytda Fazl ibn Sahldan tap tortmay bir-birini mazax qildilar, oxiri bir-birlari bilan achchiqlashib qolishdi. Nasr ibn Voris Sobi ibi Shirvonning sallasini yilib olib yerga uloqtirdi. Sobit ibn Shirvoning shu qadar jahli chiqdiki, qizarib-bo’zarib ketdi.Fazl ibn Saxl uni yupatmoqchi bo’lib, dedi:Nega xafa bo’lding? Qo’y,achchiqqa hay berish kerak.Sendan ham tapTortmay suv sepib yuborsa-yu,yana nega xafa bo’lmayin? — dedi kuyinib Sobit ibn SHirvon.O’zingni bos— dedi, Fazl ibn Sahl,— sening yuzingga sepilgan o’sha suv, mening oldimga oqib keldi.

## **“OTGA TAQA QOQISHAYOTGANDA TOSHBAQA HAM...”**

Nasr ibn Somoni zamonda Buxoroda bir savdogar o’tgan ekan. Ularning uylari bir ko’chada qarama-qarshi ekan. Savdogarning tanbal va nodon o’g’li bo’lib, Nasr ibn Ahmad basharti otlanib ko’chaga chiqquday bo’lsa, uni ko’rib havasi kelar va amir to ko’zdan g’oyib bo’lgunch aorqasidan suqlanib qarab turar edi.

Ota o’lgach, savdogarning o’g’li undan qolgan mol-mulkini qisqa vaqt ichida yeb-ichib bitirdi. Qolgan pulga ot va ikkita g’ulom sotib oldi. U ahyon-ahyonda otlanib shahar aylanar, qaytgach sharob xo’rlik qilardi. G’ulomlar esa uning oyoq

tarafida xizmatga muntazir bo'lib o'tirishardi. Shu zaylda bir qancha vaqt o'tdi. Uning o'sha ikki g'ulom va otdan boshqa sarmoyasi qolmadi. Oxiri g'ulomlarni ham, otni ham bozorga olib chiqib sotdi. Oqchaning birqismiga eshak sotib oldi, qolganini tirikchiligiga sarfladi. Tirikchiligi zo'r-ba zo'r o'tardi. Shunday bo'lsa ham shahar kezishni tark etmadni. Nasr ibn Somoniyo ko'chaga chiqdi deguncha, u ham eshagiga minib ortidan ergashardi. Uyiga qaytgandan keyin esa sharob xo'rligini qilardi. Bir kuni sharob ichib o'ltirganda birdan ko'chadan shovqin-suron eshitildi. Buqanday shovqin-suron? — deb so'radi u xizmatkoridan. Amir Nasr ibn Ahmad ko'chadan o'tib ketayotibdilar, deb javob qildi xizmatkor. Savdogarning o'g'li kayfi birmuncha oshib qolgan edi: «Bor, uning boshini kesib kel!»—deb buyurdi xizmatkoriga.—Yo Olloh! o'ylab gapiryapsizmi, yo...— dedi taajjublanib xizmatkor Bor, degandan keyin bor! — o'shqirdi xo'jayin.

Xizmatkor «xo'p bo'ladi», dedi-yu, tashqariga chiqib ketdi.  
Xo'jayin esa dong qotib qoldi.

Ertasi kuni ertalab boyvachcha o'ziga kelib xizmat-korni chaqirib so'radi:  
— Kechqurun mastligimda senga nima deb edim?  
— Nasr ibn Ahmad Somoniyning boshini kesib kel!\_  
deb buyurdingiz.  
— Sen nima qilding? — deb so'radi xo'jayinni rangi;  
o'chib.  
— Mastlikdan shunday deganingizni angladim. Keyin yana pushaymon bo'lib yurmang, deb amr-farmoningizni bajarmadim.  
— Yaxshi qilibsan,— dedi xo'jayin o'ziga kelib,— chunki u odam mening hamsoyam edi.

### **“DARDI BEDAVO”**

Shohid degan shoир tanho kitob mutolaa qilib o'ltirgan edi, bir johil tanishi kirib keldi. Salom-alikdan keyin dedi:

— Xoja nega tanho o'ltiribdilar?  
— Seni kutib shunday o'ltirgan edim,— deb javob  
qildi shoир.

## «Qog’oz xo’r» Voliy

Bir jabr diyda Sulton Mashud huzuriga borib arz qildi:  
SHohim, yo’lim G’ur orqali o’tdi. G’ur hokimi meni  
tutib oldi va bor-yo’g’imni olib qo’ydi.

Sulton «uning molining qaytarib ber!» degan mazmunda g’urvoliysiga xat yozib berdi.

G’ur amiri uning ustidan kului, rosa do’pposlatdi, so’ng sultonning maktubini unga majburan yedirib, quvib yubordi.

Jabrdiyda yana G’aznaga bordi va bo’lgan voqeani sultonga arz qildi. Sulton kotibga G’ur hokimiga taxdid omuz xat yozib berishini, unda «bu safar ham bechoraning molini qaytarib bermasang jazoga tortilasan», degan gapni yozib qo’yilishini uqdirdi. Kotib endi qog’oz olib xatyozishga tutingan ham edi, jabrdiyda uning qo’lidan tutdi va sultonga zorlandi:

—A’lo hazrat, uzundan-uzoq maktubning keragi yo’q,  
bir parcha qog’oz bo’lsa kifoya.

—Nega?

Deb taajjubandi sulton.

—CHunki,— deb javob qildi jabrdiyda, g’urliklar qogozxo’rekanlar. Katta qog’ozga yozilsa yanachaynab yutol may qiynalib qolishmasin,— deymanda.

“Suvniki- suvga ketib”

Basralik bir odamning bir necha sog’in qo’yi bor edi. Lekin har kuni ko’rshapalak sog’ib qo’yilgan sutni ichib qo’yaredi. Qo’y egasi bo’lsa sutga suv qo’shib, bozorg olib borib sotardi. Kunlardan bir kuni cho’pon haligi odamga dedi: «E, xoja, bunday qilma. Oqibati yomon bo’ladi». Lekin u quloq solmadi— sutga suv qo’shaverdi. Birkuni qo’ylar tog’yon bag’rida o’tlab yurardilar. Birdan dovul ko’tarilib, jala quydi. Tog’dan selkelib qo’ylarni oqizib ketdi. Kechqurun qishloqqa cho’poninng bir o’zi qaytib keldi. Xoja undan qo’ylarini surishtirdi. CHo’pon javob qildi: «sutiga sen qo’shgan suvlar bir-biriga qo’shilib selga aylandi va qo’ylaringni oqizib ketdi».

“Xizmatkor kunda emas kunida kerak”

Ali Muqotil degan odam manabularni hikoya qiladi: Yigitligimning boshlarida Xodining xizmatida bo’lganman va unga *maxrami asror* edim. Baxtga qarshi xalifalik taxtiga o’ltirgandan keyin meni boshqa huzuriga chaqirtirmay qo’ydi. Ma’lum vaqt alamdan yonib yurdim. Bir kuni «xalifa saroydan chiqib chorboqqa borarmish», degan xabar eshitildi. Ko’chaga chiqib yo’lpoyladim. Birvaqt u menturgan yerdan o’tib qoldi. Sapchib o’rnimdan turdim, yo’liga otilib chiqib salom berdim va o’zimni tanishtirdim:

—Men sizning avvalgi qulnigiz Ali Muqotil bo’laman.

—Ko’rib turibman,— dedi-yu, lekin iltifot ko’rsatmadı. Otiga qamchi bosdi... Bo’lgan voqeani Navfalga aytdim.—Podsholarning odati shulki, dedi u menga,saltanat taxtiga chiqqanlaridan keyin avvalgi xizmatkorlarni o’zidan yiroqlashtiradilar.

### “Ochko’zlik oqibati”

Jahon kezgan sayyoohlardan biri bunday hikoya qiladi: <<Yigitlik va kuchquvvatga to’lgan kezlarimda birvaqt yolg’iz yo’lga chiqdim. Yo’l to’sarlardan cho’chimadim. Ko’p yo’l bosib bir payt cho’l o’rtasida joylashgan rabot oldidan chiqib qoldim. *Rabotbon* nopol va xunxor odam ekan. U doimo yakka-yurgon yo’lovchiga qo’noq, otiga yem-xashak berarkan. Yaxshi mehmon qilib yotqizar, tun yarimlashgach esa uning boshini kesib, molu-mulkini o’ziniki qilib olarkan. U menga zo’ riltifot ko’rsatdi. O’zimga qo’noq, otimga yem-xashak berdi. Ovqatlanib bo’lganimizdan keyin «sharobga maylingiz qalay?»— deb so’radi. «Mayli, hazmi taom uchun yomon bo’lmas», dedim men unga. Bir ko’za sharob ko’tarib qaddi alifdek bir bola kirib keldi. U rabotbonning o’g’li ekan. Bola sertakalluflik bilan soqiylilik qildi. Kayfim oshib, uyqu g’olib kelgan bir payt bizga birxonaga joy solib berishdi. Bolaning joyi eshik oldida, meniki esa to’rida edi. Bir payt bolaga yopisha ketdim, u qarshilik ko’rsatdi. Olisha-olisha oxiri holdan toydik. Men bolaning o’rniga o’tib yotdim. Lekin uyqum qochib ketdi. Bir payt eshik g’iyqillab ochildi va qo’lida pichoq bilan rabotbon kirib keldi. Mening ustimdan hatlab o’tib bolaning tepasiga bordi va ustiga minib olib boshini shartta kesib oldi.

Shundan keyin angladimki, bu badbaxt mening jonimga qasd qilganekan. O’rnindan sapchib turdim va qoziqqa ilib qo’yilgan qilichimni oldim-da, g’ilofidan sug’irib, rabotbonga tashlandim. Shunda rabotbon meni emas, balki o’z o’g’lini o’ldirib qo’yanini payqadi. Pichoqni tashlab dod soldi, so’ng *tavbatazarru* qildi.»

### **“Birovga choh qazisang o’zing tushasan”**

Sariq ismli bir odam boshidan- kechirgan manabu voqeani hikoya qilib berdi: Bir kuni yolg’iz otlanib yo’lga chiqdim. Yo’lda yaxshi qurollangan boshqa bir otliq menga hamroh bo’ldi. Yarim yo’lga borganimizda qarshimizdan otliq o’g’ri chiqib qoldi va sheringim bilan qilichchopishib ketishdi. Ko’p olishganlaridan keyin o’gri sheringimni o’ldirib qo’ydi. Keyin u menga hamla qildi.

— Axir men senga qo’l ko’targanim yo’q-ku, nega meni o’ldirmoqqa qasd qilding? Menden nima istaysan? — dedim, menunga

u so’zlarimga qulq solmadi. Borimni oldi, so’ng qo’l oyog’imni boglab tashlab ketdi. Kechgacha och-u yalang’och sahroda yotdim. Kechasi bir iloj qilib qo’l-oyog’imni bo’shatib oldim va yo’lga tushdim. Bir payt uzoqdan chiroq shu’iasi ko’rindi. O’sha tarafga qarab yurdim va chodir oldidan chiqib qoldim. Chodirga kirdim, qarasam bir odam ayol bilan mayshat qilib o’ltiribdi. O’sha odam menga ko’zi tushishi bilan sapchib o’rnidan turdi va qilich o’qtaldi. Ko’p yalinib-yolvordim, lekin bo’lmadi. Meni o’ldirishga qasd qildi u haligi xotin «bu odamni mening oldimda o’ldirma», deb ko’p zorlandi, avvalda qulq solgisi kelmadni. Diqqat bilan qarasam, bu zolim o’sha meni cho’lda bandi qilib tashlab ketgan o’g’ri ekan. Oxiri u meni tashqariga olib chiqdi va qurib qolgan bir ariqning tubiga olib tushdi, cho’k tushdirib bo’g’izlamoqchi bo’ldi. Endi qilichini ko’targan ham ediki, birdan sherning na’rasi tevarak-atrofni tutdi. O’g’ri qilichni tashlab qochdi, sher bo’lsa uni quvib ketdi.

### **“O’g’rilar fitnasi”**

G’ulom ibn Imon hikoya qiladi: Basraning Ubullasida bir savdogarning xonadonid xizmat qilar edim. Bir kuni besh yuz dinor oqchani lattaga o’rab qo’ynimga soldim va kemaga tushib Ubullaga qarab yo’l oldim. Kemaga

chiqqandan keyin xaltani qo'ynimdan olib oldimga qo'ydim. Kema endi siljigan ham ediki, qirg'oqda qiroat bilan qu'ron tilovat qilib o'ltingan bir ko'zi ojiz odamga nazarim tushdi. U shu qadar chiroyli tilovat qilardiki, kemachi be ixtiyor keman ni to'xtatdi. Biz ikkimiz unga tikilib qoldik. Ko'zi ojiz kemachiga yalinib-yol vorib biron obodroq manzilga eltib qo'yishini iltimos qildi. Kemachi bo'lsa uni ranjitdi. Men uni koyib berdim:

Bir keksa ojiz hofizni ne sababdan ranjitasan?

Uni kemangga olsang nima bo'lardi?

Shundan keyin kemachi uni kemasiga chiqarib oldi. Xofiz to manzilimizga yetkunimizgacha tilovat qilib bordi, men esa unga tamom maxliyo bo'lib qolibman. U bullaga yaqin qolganda o'sha yerda tushirib qoldirishlarini iltimos qildi. Shu payt qarasam xalta g'oyib bo'libdi.

«Xaltam qani?»—deb dod-faryod ko'tardim.

Kemachi meni so'ka ketdi:

Axir men sen bilan kemada bo'lsam, biron yerda to'xtab, undan tushmagan bo'lsam, xaltangni g'oyib bo'lganini men qayerdan bilay?!

Hofiz ham zorlandi, qasam ichdi, Xullas, ikkalalari meni malomat qilishdi. Xalta qayerga g'oyib bo'lganini bilolmadim, o'ylab o'yimga yetmadim. Bordi-yu, ular shu ni qo'yishgan bo'lsalar, uni qayerga yashirishadi? Oxiri ularning beg'arazligiga ishonch hosil qilib, o'z-o'zimga dedim:

«Tangri taolo shu mol-dunyoni menga ravo ko'rmagan, tahlika va muhtojlikda kun kechirishga mubtalo qilgan ekan. Endi bola-chaqa rizq-ro'zsiz qoladigan bo'ldi. Vatanni tark etib boshim oqqan tarafga ketadigan bo'ldim». Uyimga bormay bir yerda tunab qolishga va ertasi kuni namozi bomdoddan keyin jo'nab ketishga axd qildim.

Xullas dilda dardu alam, ko'zlarim nam xo'lda borardim. Bir yo'lovchiga yo'liqdim. Ahvolimni ko'rib mendan nima bo'lganini surishtirdi. Bor gapni aytdim.

Qo'rhma,— dedi u,— men senga yo'lko'rsataman,oqchangni topib olasan.

Bozorga borib bir dasta bug'doy non, yaxshi taomlardan sotib ol. So'ng

zindon banga borib «meni qamab qo'y», deb iltimos qil, Zindonningto'rida Abubakr Nuhos ismli bir odam o'ttiribdi nonbilan taomlarni uning oldiga qo'y. Ovqatni yeb, duo-fo-tiha qilib bo'lgandan keyin oldingga keladi va «menga nima yumushing bor?»— deb so'raydi. Shunda bor gapni unga ayt. Pulingni o'sha Abubakr Nuhos topib beradi.

Bozorga borib o'sha yo'lovch aytgan narsalarni xarid qildim, so'ng zindonbonning oldiga jo'nadim.U iltimosimni qabul qildi va meni zindonga tashladi. Olib kelgan narsalarimni Abubakr Nuhosning oldiga qo'ydim. So'ng boshimdan kechirganlarimni unga birma-bir so'zlab berdim. Bu yerdan chiqib Bani halol qabilasining yurtiga, bor; falondarvozadan kirib, falon mahallaning bir chetidagi falon hovliga kir. Hovlida to'rt tarafi bo'yra bilan o'ralgan to'rtta sufa bor. Devoriga mix qoqilgan. Mixlardan biriga chiroq osilgan. Choponingni yechib mixga il, so'ng birburchakka borib o'ltir. Hayal o'tmay bir to'da odamlar paydo bo'lishadi. Ular ham choponlarini ychib yoningga o'ltirishadi. Keyin sharobxo'rlik boshlanadi. Sen ularga qo'shil. Ma'lum fursatdan keyin qo'lingga qadah olib: «Barchashod-xurrambo'lg'an, Abu-bakr Nuhosning tan-joni omon bo'lg'an!»— deb ayt. Ular mening nomimni eshitishlari bilan cho'chib tushdilar, so'ng o'zlariga kelib, mening sha'nimga hamdu sano o'qiydilar, Keyin: «Nima, u ham sening ahvolingga tushib qoldimi?» — deb so'rashadi. Sen: «Ha, shunday bo'lib qoldi»,—deb javob qil. Keyin:«Sizlarga duo deb yubordilar va aytdilarki, o'sha sizlar kecha o'g'irlab qo'ygan xaltadagi oqcha mening qarindoshimga tegishli edi»,— degin.

Men zindondan chiqib Abubakr Nug'osning aytganlarini qildim. Ular bilan taom yeb, sharob ichdim. Shu tariqa bir necha kun o'tdi. Bir kuni sharob xo'rlik vaqtida qadah ko'tarib: «Abubakr Nuhosipng eson-omonligidan shod bo'linglar!» — dedim. O'sha odamlar uning nomini eshitishlari bilan cho'chib tushdilar, so'ng: «Ul zot bizga ustoz va yo'lboshchi bo'ladilar. Biz unga jonimizni fido qilamiz»,— dedilar. Abubakr Nuhosning salomini yetkazdim va oqchamni talab qildim. Ulardan biri shu paytning o'zida xaltamni olib chiqib oldimga qo'ydi.

Minnatdorchilik bildirb, dedim:Bor-yo'g'im shu edi, berdinglar. Rahmat sizlarga!Lekin, bir iltimosimbor, aytsam maylimi?

—Mayli, aytaqol,— deyishdi.Xalta qanday qilib sizlarning qo'lingizga tushib qoldi? — so'radim men.

Bir soatlar chamasi aytgilari kelmay, vaj-korson ko'rsatdilar. Oxiri ulardan biri menga murojat qildi: Meni tanidingmi?

Diqqat bilan qarasam o'sha qiroat bilan tilovat qilgan ko'r ekan. Boshqalarga ham nazar tashladim. Kemachi ham shu yerda ekan.

Manabu ko'r,— dedi u menga murojaat qilib,—tilovat qilib seni chalg'itib turdi, men esa sezdirmay xaltangni olib Dajlaga otdim. G'avvos do'stlarimiz unisuv ostidan olib chiqdilar. Bugun uni taqsimlaydigankunimiz edi. Baxtga qarshi ustozning amr-farmoni kelib qoldi.

### **“To'rt sayyoh”**

Qadim-qadim zamonlarda to'rt o'rtoq safarga otlanibdilar. Biri shahzoda, ikkinchisi vazirzoda, uchinchisi savdogar o'g'li, to'rtinchisi dehqon bolasi ekan.Ulardan biri gap boshladi:Olamda nima gap? Bizlar buni bilishimiz kerak .So'ng o'rtaga savol tashladi:Osoyishtalik va farog'at nimadan? Olam binosi ekin-tekin bilan ustuvor,—dedi dehqon bolasi.Yo'q, hammagap tijorat ilmni bilishda,-deb e'tiroz bildirdi savdogarning o'g'li.

—Sharofatli nasabga e'tiborda,— deb aytdi vazirzoda.

Shahzoda dediki. Hamma narsa kazoyuqadardan peshonaga bitgani bo'ladi.

Shu tarzda kechgacha qizg'in baxslashdilar. Har uchchalasi o'sha o'rtaga savol tashlagan dehqon yigitga yopishdilar.

~ Bugun yemoq-ichmoqqa bir nimamiz yo'q. Sening e'tikodingga ko'ra hamma gap kasb-hunarda. Qani, bizga kasbingning karomatini ko'rsat va top gan-tutganing bilan bizni mehmon qil. Shundan keyin ular shaharga qaytib keldilar, yigitlardan biri dehqon yigitga piching otdi:

Bu shahri azimda qanday tirikchilik qilasan? Dehqon yigit cho'lga chiqib o'tin qilib keldi, uni bozorga olib borib yarim dinorga sotdi va o'sha pulga

sheriklarini mehmon qildi. So'ng shahar darvozasiga «bir kunda topganim yarim dinor bo'ldi», deb yozib o'ydi. Ertasi kuni navbat savdogarning o'gliga keldi. U ertalab shaharga bordi, bozo raylanib savdogarlarning gaplariga qulq soldi. Ko'pchilik bugun katta bir kema shahar bandariga kelib to'xtagani, savdogarlar qimmat baho matolar olib kelganligi haqida so'zlashardilar. Savdogarning o'g'li bandarga qarab chopdi va borib savdogarlar olib kelgan nafis matolarini ulgurjisiga sotib olib, bozorga olib borib maydalab pulladi va shu yo'l bilan mingdinor, foyda orttirdi; shahar darvozasiga „kasb-korimning bir kunlik daromadim ming .dinor», deb yozdi, so'ng borib do'stlarni ziyofat qildi.

Navbat vazirzodaga keldi. U ham omad tilab shahar aylandi, Oxiri bir do'stini yo'liqtirib qoldi va qulog'iga bir nimalar deb shivirladi. Do'stiunga ellik dirham olib chiqib berdi. Vazir zoda shahar darvozasiga «oliy kasablik va ma'rifatlilikning bir kunlik bahosi ellik dirham ekan», deb yozib qo'ydi...

Navbat shahzodaga keldi. U tavakkal qilib shaharga chiqdi va uni kechgacha giraylandi. To'satdan katta to's-to' polon va dod-faryodning ustidan chiqib qoldi.

—Buning sababi nima? — deb so'radi shahzoda yolovchidan.

—Podsho hazratlari olamdan o'tdilar,— dediu,—xayol o'tmay uni dafn qilgani olib o'tadilar.

Shahzoda bu odamlarga notanish edi. Shuning uchun unga e'tibor berishmadi. Shundan keyin azatutib o'ltirgan amirlarning oldiga bordi. Ular marhumning taxt vorisi yo'qligidan, kimni podsho qilib ko'tarishni bilishmay boshlari qotib o'ltirishgan ekanlar. Harki m o'z nomzodini o'rtaga tiqishtirdi. Birdan ular qarshilariga kelib o'ltirgan yigitning podshozoda ekanligini sezib qoldilar. Hol-ahvol surishtirdilar, uning falon podshoning avlodi ekanligi ma'lum bo'lgach, hammalari bir bo'lib uni toju taxt bilan ziynatladilar. Shundan keyin podshohzoda haligi uch do'stini oldirib keldi vazirzodani— vazirlik lavozimiga, savdogarning o'g'lini — mirzaboshilikka tayinladi. Dehqon yigit kichik bir yumushga tayinlandi. Podshozoda shahar darvozasiga «bir kunimning samarasi podshohning qazo qilishi bo'ldi», deb yozib qo'ydi.

### **“Pinhoniy o'g'ri”**

Horunar-Rashid zamonida Ahvaz nohiyatida o'g'ri ko'payib ketdi. Ularning dastidan odamlar ozor chekdi, ko'plarning yostig'i quridi. Buni Horunar-Rashidga yetkazdilar. Xalifa ularga qarshi amir Masrur Xom boshchiligidan askar yubordi va amir Masrurga o'g'rilarning barchasini tutib boshini kesishni va Bag'dodga olib kelishni buyurdi. Yana ularni ehtiyot qilish va harmanzilda kesilgan boshlarni hisob-kitob qilib turishni buyurdi. Amir Masrur xalifaning aytganlarini ziyoda qilib bajardi. Kesilgan boshlarni qopga soldirib, og'zini mahkam qilib bog'latdi, so'ng Bag'dodga qarab yo'lga tushdi. Kechqurun bir manzilga kelib tushdilar. Qopni ochib qarasa, kesilgan qirqbosh bus butun bo'lib chiqdi. Ertasi ertalab yolga chiqish oldidan qopni ochib kallalarni. Hisoblagan edilar bitta bosh kam chiqdi. Hammalari qo'rqib ketdilar. Shu asosda ro'paralaridan eshak mingan qariya chiqib qoldi. Uning qo'lida «Qur'on» va ko'zlarini yumganicha tilovat qilib qolardi. Salom-alikdan keyin amir Masrur so'radi:

— Kimsan? Qayoqqa ketayotibsang?  
— Xoji va hofizman. Boshim oqqan tarafga borayotirman,— deb javob berdi qariya.

Amir Masrur yaqinlariga dedi: «Men bu odamga ishonmay turibman. Uni ushlanglar va boshini kesib g'oyib bo'lgan kalla o'rniga qopga solipqlar!» Mulozimlar amirning farmoyishini bajardilar.

Yana bir manzilda to'xtab kallalarni hisoblab qarasalar tag'in bitta bosh kamchiqdi. Hammalari hayron bo'ldilar. Ertasi kuni yo'lda bir ayol kishini uchratib qoldilar. Amir Masrurning farmoyishi bilan uning boshini ham kesib oldilar va yo'qolgan kalla o'rniga qopga soldilar.

Bag'dodga kirgandan keyin qopni ochib hisoblasalar endi kesilgan boshlar qirqbitta bo'lib qolibdi. Amir Masrur buni qazoyu-qadarning sir -ru asroriga, o'sha birinchi uchrangan cholning sehriga yo'ydi.

Saroyga borib bo'lgan voqeani xalifaga so'zlab berdilar.

— Boshqalardan ko'ra,— dedi xalifa,— o'sha cholning boshi kesilganidan ko'proq xursandman, chunki boshqalar ochiq-oshkora o'g'irlilik qilganlari holda, qariya bir umr pinhona o'g'irlilik qilib keldi.

Yuqorida xiltirilgan xamma xikoyalarda ison xayotida tarbiya orqali xushyorlikni, har bir xarakatni m'yori borligini, salbiy ishlar yomonlik bilan tugashini, sabobli ishlarga doimo yotiqlar borligini misollar bilan o'quvchilarga tushintirildi.

## **2.2. Muhammad Avfiyning hikoyatlarini o'quvchilarga tarbiyaviy tomonlarini umumlashtirish orqali xulosa chiqarishga o'rgatish.**

Tarbiya aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog`lom, e'tiqodli, dili pok, ruhi komil, har tomonlama ma'naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalminal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko`zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo hususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatları rivojlanadi, harakteri, g`oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o`zlashtiradi: bu o`zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi ahamiyatga ega bo`ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko`rsatmasalar tajriba va bilimni o`zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulgayib borgan sari bu faollik tobora ko`prq mustaqillik hususiyatlariga ega bo`lib boradi: tarbiyalanuvchilar o`zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o`z-o`zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo`lishga ko`nika boradilar.

Hamma davrlarning ilg`or kishilari tarbiyaga yuqori baho bergenlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O`tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi o`zaro munosabatda bo`ladi. Bu munosabat o`zaro tushunish, ishonch, hamkorlik asosida qurilishi lozim.

Maktab butun tarbiya ishini hayot bilan hamohangi, o`quvchilarga o`tmish, tarix, san'at haqidagi ma'lumotlarni chuqur o`rgatishi,xalq pedagogikasi asosida ish yuritishi, buyuk allomalarning farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlari, inson ruhini chuqur o`rganib, sharqona urf-odatlar, an'analar asosida yoshlarga mehnat malakasini singdirishi lozim.

Tarbiyaning maqsadini pedagoglar ham, ota-onalar ham yaxshi bilishlari lozim.

Umumta'lim maktablarida tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi asos qilib olinadi. Shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki hislatlarining to`laqonligi, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig`indisini o`z ichiga oladi.

Tarbiya moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuliga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, siyosiy tizimga, mafkuraga bog`liqdir.

Tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o`zaro bog`liqligi uning muhim qonuniyati hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog`liqdir. Ayni chog`da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bog`liq. Tarbiya jarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondoshishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o`rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarining hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinari ekan, tarbiya jarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do`stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borishi kerak. Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o`quvchilar o`rtasida bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor berish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo`lishi lozim.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzluksiz bo`lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlashishi ta'minlansa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Tarbiyada inson shaxsini oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola betakror va o`ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e'tiborda tutilishi zarur.

Tarbiya muayyan maqsad bilan rejali ravishda amalga oshiriladigan davomli ishdir.

Yosh avlodga har bir tarixiy davrdagi jamiyatning o`ziga xos ishlab chiqarish metodi va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq tarbiya beriladi. Bu tarbiyaning asosiy qonuniyatidir.

Tarbiya jamiyat hayoti bilan bog`liq, jamiyat o`zgarib rivojlanishi bilan tarbiya ham o`zgarib, rivojlanib boradi.

Tarbiya jarayoni hayotiy, amaliy hususiyat kasb etmog`i lozim. Tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari; pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoatlari- hamma kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo`lishlari lozim.

Tarbiya nazariyasida ham pedagogika fanida bo`lgani kabi, yangi vujudga kelayotgan qarashlar bilan eskirib borayotgan qarashlar o`rtasida kurash ketgan. Tarbiya nazariyasidagi va amaliyotidagi muhim yo`nalishlarni tanqidiy o`rganmay turib, tarbiya nazariyasining asosiy masalalarini tushuna olish qiyin. Keng tarqalgan biri avtoritar (boshqalarga ko`r-ko`rona bo`yin suyish) tarbiya nazariysi edi. Avtoritar tarbiya XVI asrda paydo bo`lib, hozirda Ispaniyada, Lotin Amerikasining ba'zi mamlakatlarida yaqqol ifodasini topgan. Avtoritar tarbiyani ilmiy ravishda asoslab berishga uringan nemis pedagogi Fridrix Gerbart (1771-1841) bola tug'ilganda «yovvoyi sho`xlikka» xos bo`lish fikrini olg'a suradi. Shu bilan u tartib buzgan o`quvchilar uchun jarima jurnalini tashkil etishni taklif etadi. U tartib buzgan o`quvchilarni ovqasiz qoldirish, burchakka turg`izib qo`yish, karserga qamash, jarimaga tortish kabi jazolashni turlarini joriy etadi.

Avtoritar tarbiyani birinchi bo`lib J.J.Russo tanqid qildi va o`zi erkin tarbiya nazariyasini ilgari surdi.

O`zbek maktablarida ta'lim-tarbiya bir-biridan ajralmas deb hisoblanadi. Sinfdag'i har qanday ish doimo tarbiyaviy ishdir., biroq tarbiyaviy ishlarni ta'lim berish bilan cheklash mumkin emas.

Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o`qituvchining o`quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o`zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya – tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda ma'lum bir maqsadga qarata va muntazam suratda ta'sir qilishdir. Bu xildagi ta'rif tarbiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani, chunonchi: muayyan dunyoqarash, ahloq, ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini singdirish, muayyan harakter va iroda, odat va ahloq yaratishni o`z ichiga oladi.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo`lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o`zaro bog`liq bo`lgan ikki faoliyatni – o`qituvchi va o`quvchi faoliyatini o`z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o`quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg`ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo`lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo`ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to`g`ri uyushtirish g`oyat muhimdir.

Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirga nisbatan ma'lum munosabatda bo`ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va hohishlarini ifodalaydi.

Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (hoh ijobjiy, hoh salbiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog`liqligini ko`rsatadi.

Bolaning shaxsiy tajribasi ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatini belgilab beradi va uning xulqida aks etadi. Shuning uchun bola faoliyatini uyushtirishning o`ziga kifoya qilmaydi. To`g`ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo`layotgan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, baholashni, his qilishni hamda ulardan o`zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganini bilish zarur. Yana shuni hisobga olish kerakki, bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar asosida ro`y beradi. Bola ulg`aya borishi bilan bu xil aloqa va munosabatlar murakkablashib boradi va bola shaxsning kamolga yetishida yo ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiya maqsadga muvofiq muntazam ta'sir etishni ko`zda tutadi, zeroki shu yo'l bilan jamiyatning shaxsga qo`yadigan talablari tarbiyalanuvchining hulqini idora qilib turuvchi ichki ehtiyojga aylanadi.

Tarbiya jaaryonida o`quvchining onginigina emas, balki his-tuyg`ularini ham o`stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo`yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o`quvchining ongiga (ta'lim jarayoni asosida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jaaryonida) muntazam ta'sir etib boriladi. Agar o`quvchini tarbiyalashda bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko`p qirrali va murakkabdir. Maktabdagagi tarbiya jarayoni to`xtovsiz davom etadigan jarayon bo`lib, unga o`qituvchi tarbiyachi rahbarlik qiladi va u tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo`lgan maqsadini, shu maqsadni hal qilishga xizmat etadigan faoliyatini belgilaydi. O`quvchilarning shu faoliyatiga ishtirok etishini ta'minlab, ular o`rtasida ijtimoiy, jamoa va o`rtoqlik aloqalari va munosabati uchun sharoit yaratadi.

O`quvchilarni faoliyatda qatnashishlari orqali ularning mustaqilligi ijodiy tashabbuskorligi o`sib borishiga erishiladi. Ana shu jarayonda bolaning qarashlari, e'tiqodlari va voqealari hodisalarga o`z nuqtai nazari vujudga keladi va

mustahkamlanib boradi. Bular bolaning atrof-muhitning ta'siriga nisbatan qanday munosabatda bo`lishini belgilaydi.

Shunday qilib, maktabdagagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish va kamolga etkazish jarayonidan iborat bo`lib, uning mazmuni ta'limdagidek alohida predmetlarda emas, balki o`quvilarning hayot-faoliyatlarini va o`zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Mana shulardan tarbiya jarayonining o`ziga xos hususiyatlari kelib chiqadi.

Pedagogik talab tarbiya jarayonida boshlang`ich usuli bo`lib, tarbiyalanuvchining muayyan faoliyatini rag`batlantirishni yoki to`xtatishni va aniq amaliy hamda insoniy sifatlarni namoyon qilishni ta'minlaydi.

Talab qilish usuli o`quvchilarning ko`pgina ahloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga tarbiyalanuvchilarda o`ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni qarab chiqar ekanmiz, faqat bizning jamiyatimizdagina xalqning ma'naviy-siyosiy birligini mustahkamlashda pedagogik talab tarbiya jarayonining ta'sirchan usuliga aylanishi mumkin.

O`qituvchi o`quvchilar bilan ishlar ekan, ularni faoliyatini tashkil etar ekan, o`z ko`rsatmalari bilan o`quvchilarning ayrim harakatlarini rag`batlantiradi. O`quv va tarbiyaviy ishlar jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi yoki rag`batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo`nda bo`lib, sezilar-sezilmas majbur qilishga o`xshab kesa-da boshqalari acha keng tushintirish yo'l-yo'riqlar shakliga ega bo`ladi. Bir xillari o`quvchilarni faqat ishga jalb qilish zaruriyati tufayli, boshqalari bolalarning ayrim ko`nikma va malakalarini o`zlashtirishga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; ayrimlari o`quvchilarning keraksiz va noto`g`ri harakatlarini to`xtasa, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarni mustahkamlaydi va qo`llab quvvatlaydi. Pedagogning talabisiz o`quvchilarning o`quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo`lmaydi.

Tajribali pedagog bolalar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi., o`z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilinishini aniq muayyan tarzda

biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos. Tarbiya jarayonida pedagogik talablarning asosiy turlari va shakllarini qarab chiqamiz.Ularni o'quvchilar qobul qilish darajasida misollar bilan tushintiriladi.

## XULOSA

Milliy qadriyatlarimiz boshqa xalqlarga xos bo'lмаган маросимлар, урфодатлар ва ан'аналар мажмусидан иборатdir. Улар о'зларининг шакланish шароитларига ко'ра mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy mazmunda mavjud bo'ladi.

Milliy qadriyatlar insonlarning bir-birlariga mehr-oqibati, sadoqati, urfodatlari, g'oyaviylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, halollik, insonparvarlik, birodarlik, mustaqillik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, taraqqiyatparvarlik singari mazmun va fazilatlarni o'zida aks ettiradi.

Mahalliy qadriyatlar umummillyi manfaatlariga mos ravishda saralanib, mazmunan boyib boradi. Mahalliy qadriyatlarning eng ilg'ori va yaxshisi umuminsoniy darajaga ko'tariladi.

## **TAJRIBA – SINOV ISHI**

Tajriba sinov o'tkazishdan maqsad, belgilangan vaqt ichida oldimizga qo'yilgan maqsad va vazifalarni ijobiy bajarib yosh avlodlarimizda tarixiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Allomalarimiz tajribalari asosida bizga qoldirgan meroslaridan o'quvchilarni yoshini, qiziqishini va o'zlashtirishini hisobga olib quyidagi mavzular asosida tushuntirish ishlarini olib bordik: Muhammad Avfiyning hikoyatlarini o'quvchilarga tarbiyaviy tomonlarini ymymlashtirish orqali xulosa chiqarishga o'rgatishni baxs-munozaralar hamda o'quvchilarni fikr-xulosalarini ham e'tiborga olib ish tutdik.

I. 1.Siz Muhammad Avfiyning hikoyatlari orqali nima xulosalar chiqarishga o'rgandiz ?

2.Nima uchun ko'p kitob o'qishimiz kerak?

3.Tarbiyalı kishini nima uchun xurmat qilishadi va uning tarbiyaliligi qanday aniqlanadi?

4.Tarbiyasizlik xarakatlarni ko'rganingizda sizda qanday holatlar nomoyon bo'ladi?

II.1. Halollik nima?

2.Qanday xatti-xarakatlarimizda xalollik belgilari ko'rindi?

3. Xalol kishilarni insonlar qanday xurmat qilishadi?

4. Nima uchun ota-bobolarimiz xolol luqma egin deyishadi?

III.1.,,Sotqinlik''nima?

2.Kimlarni sotqinlar deymiz?

3.Nima uchun ular sotqinlik qiladilar?

4.Sotqinlarni xalq suyadimi?

5.Ular oxir-oqibatda qandau xolatga tushib qoladilar?

IV.1.,,Tejamkorlik''nima?

2.Tejamkorlikka rioya qilsak qanday yutuqlarga erishamiz?

3.Tejagan terga tushmas-maqolini izoxlang?

4.Tejamkorlikni me'yorda ushslash-deganda nimani tushunasiz?

V.1.,,Omonat'' nima?

2.Omonatni saqlash deganda nimani tushunasiz?

3.Omonatni o'z xolicha topshirgan kishilarni qanday insonlar deymiz?

4.Omonat xaqida qanday xikoyalar bilasiz?

Muhammad Avfiyning hikoyatlarida ko'plab ilg'or pedagogik fikrlar ifodalangan bo'lib, ular xalq pedagogikasini asosiy manbalaridan biri, yoshlar tarbiyasida muhim vositadir.

Go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish, Vatanni sevish, o'zligini anglash, fidoiylik, mehnatsevarlik, do'stlik, mardlik kabi hislatlar shakllanishining yo'l va uslublarini ko'rsatib bergen.

Milliy ta'lim-tarbiya ishiga xalq pedagogikasini joriy etish zamonaviy maktab maqsad va vazifalaridan kelib chiqib uni mumkin qadar to'laroq amalga oshirish juda muhimdir.

Tadqiqot boshida o'quvchilarga Muhammad Avfiy kim? uning hikoyatlaridan o'qiganmisizlar javobiga 32 nafar o'quvchilardan biror nafari ham javob bermadilar. Tadqiqot oxirida esa shu savolga o'quvchilarning hammasi xabardor bo'ganini, Muhammad Avfiyning hikoyatlaridan bahramand bo'lganlarini aytishdilar. O'quvchilarga tarbiyaviy tomonlarini ymymlashtirish orqali xulosa chiqarishga erishdik O'quvchilarga tadqiqot davomida tushuntirish ishlarini olib borganimizdan so'ng shunday xulosaga keldik o'quvchilar bilan o'qituvchi qancha ko'p ishlar olib borsa o'quvchilarni faolligi shuncha ko'p ijobiy natijalar berar ekan.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbek ma'rifatparvarlari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga o'z davrlarida katta e'tibor berganlar. Shuning uchun hozirgi kunda ma'naviy merosdan foydalanish yoshlari tarbiyasida dolzarb masaladir. shunga ko'ra, biz o'zbek ma'rifatparvarlarining yuqorida zikr etilgan boy merosidan foydalanib, uni yoshlari ongiga yetkazishimiz zarur va shart.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviy manba bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan- avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Umuman olganda, qadriyat deganda insoniyatga xizmat qiladigan, uning hayotiy ehtiyoji va manfaatlarini qondiruvchi barcha moddiy va ma'naviy boyliklar tushuniladi. Insonlarning ijtimoiy turmushi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib beruvchi barcha voqeliklar qadriyatlar hisoblanadi va yuqori baholanadi.

Milliy qadriyatlarimiz boshqa xalqlarga xos bo'lмаган маросимлар, урфодатлар ва ананалар мајмусидан иборатdir. Улар о'зларининг шакланиш шароитларига ко'ра махалий, миллий, мінтақавиي ва ұмуминсониي мазмунда мавjud bo'ladi.

Milliy qadriyatlar insonlarning bir-birlariga mehr-oqibati, sadoqati, urfodatlari, g'oyaviylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, halollik, insonparvarlik, birodarlik, mustaqillik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, taraqqiyparvarlik singari mazmun va fazilatlarni o'zida aks ettiradi.

Mahalliy qadriyatlar umummiliy manfaatlariga mos ravishda saralanib, mazmunan boyib boradi. Mahalliy qadriyatlarning eng ilg'ori va yaxshisi ұмуминсониي даражага ко'тарилади. Qadriyatlarning mohiyatini to'g'ri baholab, yashovchanligini ta'minlash millatning manfaatlaridan kelib chiqish va uning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashi lozim. Millatning jahondagi nufuzi milliy qadriyatlarga bo'lgan to'g'ri munosabatlari bilan belgilanadi. Qadriyatlar tarixiy

voqelik va hodisalarining insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini yuqori ko'tarish maqsadida va salohiyatini oshirish uchun qo'llaniladi.

**Tavsiyalar:** ota-onalar pedagoglar tarbiya haqida tushuntirish ishlarini kundalik turmushga, mahalliy sharoitlarga, urfu-odatlarimizga bog'lagan xolda olib borsalar albatta o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizda tarixiy meroslarimizga qadriyatli munosabatlar shakllanadi hamda avloddan-avlodga o'tib qadrlanib boraveradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.**

1. Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг ҳукуқуий кафолати. – Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти, 1993, 27-28-бет.
2. Mirziyoev Sh.M.Erkin va faravon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.:”O'zbekiston”2016-56 bet.
3. Mirziyoev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:”O'zbekiston”2016-488 bet.
- 4.O'zbekiston Republikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni. “Ma'rifat”, 1997. 1 ok.
- 5.O'zbekiston Republikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Ma'rifat” gazetasi, 1997 yil , 1-okt.
6. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Асарлар. Ўн беш томлик. 13 том. – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. –189-190-бетлар.
7. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Асарлар. Ўн беш томлик. 13 том. – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. 192-193-бетлар
- 8.A.Avloniy. «Turkiy Guliston yohud axloq», «O'qituvchi» nashriyoti., T. 1993 yil.
- 9.Abu Nasr Forobi. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. T. 1993 yil.
10. Баркамол авлод орзуси //Тузувчилар Ш.курбонов, X.Сайдов, Р.Ахлиддинов. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти, 1999. – 143-бет.
- 11.Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika .A.Navoiy nomidagi O'zb milliy kutubxonasi nashriyoti 2009 yil 232-bet.
- 12.Mavrulov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. Toshkent O'zbekiston. 2008 yil. 80-bet.
13. Mavlonova R. va boshqalar. «Pedagogika» T. «O'qituvchi» 2001 yil.
- 14.Musurmonova O. Ma'anaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent. O'qituvchi 1996 yil 192-bet.

- 15.Mirtursunov Z. «Xalq pedagogikasi». T.1994 yil.
16. Munavvarov A. «Pedagogika». «O`qituvchi» nashriyoti. T. 1996 y.
- 17.Podlasiy I.P. «Pedagogika». I-II t. –M.: Vlados, 1999 yil.
18. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино, Таълим ва тарбия ҳакида. – Тошкент, Ўқитувчи, 1967. – 75-бет.
19. Saparboev M. Tarix vositasida milliy g`ururni tarbiyalash. Xalq ta`limi. 2004 y 3-son. 48-bet.
20. Safarbuvaeva I.R. O`quvchi shaxsini shakllantirishda milliy mentalitetdan foydalanishning pedagogik asoslari. Dissertasiya TDPU 2006y.
21. Safo Ochil. Mustqaqillik ma`naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent. “O`qituvchi” 1998 y.208-bet.
22. Tursunov S, B.Nishonaliev «Pedagogka». «O`qituvchi» nashriyoti. T.1996 yil.
23. Turg`unov. S. O`quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg`usini rivojlantirishda maktab rahbarlarining o`rni. Xalq ta`limi jurnali 2006y 1-son, 86-bet.
- 24.To`lanova M.Qadriyatlar falsafasi. Toshkent. O`zbekiston. 1998 y.236-bet.
- 25.Xasanboyeva O. «Pedagogika tarixidan xrestomatiya». «O`qituvchi» nashriyoti. T. 1993 yil.
26. Xayitov A. Sinf rahbari Toshkent Yangi asr avlodi 2008 127-bet.
- 27.Xakimov Sh.Shaxsnинг siyosiy madaniyati. Toshkent “O`zbekiston”2002 y 64-bet
- 28.Xoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. Toshkent. O`qituvchi 1996 yil 488-bet.
- 29.Xoshimov K, Safo Ochil. «O`zbek pedagogikasi antologiyasi». «O`qituvchi» nashriyoti. T. 2000 yil.
- 30.Xoshimov K, S.Nishonov va boshqalar. «Pedagogika tarixi». T. «O`qituvchi» 1996 yil.

31.Ziyomuhammedov B, Sh.Abdullaeva. «Pedagogika» «O`zbekiston milliy entsiklopediyasi» nashriyoti. T. 2000 yil.

32.O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar: Fozilov N. va boshqalar. Toshkent. “Sharq” 200, -301bet.

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.doda.uz](http://www.doda.uz)

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.NamSu.uz](http://www.NamSu.uz)

[www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)